



O‘ZBEKISTON VA BELARUS YETAKCHILARI “AMIRSOY” TOG‘-CHANG‘I MAJMUASIDA UCHRASHUV O‘TKAZDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko “Amirsoy” tog‘ dam olish maskaniga tashrif buyurdilar.

Toshkentda bo‘lib o‘tgan muzokaralar-da davlat rahbarlari madaniy-gumanitar yo‘nalishda, shu jumladan, sport va turizm sohalarida faol almashinuvlarni davom ettirishga kelishib oldilar. Oliy darajadagi uchrashuvlar yakunida boshqa hujjatlar qatorida 2024-2025-yillarda Sport sohasida hamkorlik bo‘yicha dastur va Turizm sohasida hamkorlik bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini imzolangan edi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sport va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirildi. Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi “Amirsoy” tog‘ dam olish maskani shular jumlasidan. Oxirgi uch yilda bu yerga 4 millionga yaqin sayyoh kelgan.

Jahon darajasidagi har mavsumga mos ushbu majmuaga tashrif davomida davlat

rahbarlari sportchilar va sayyohlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar, ikki mamlakat o‘rtasidagi turizm almashinuvini kengaytirish yuzasidan fikr almashdilar.

Yetakchilar samimiy muloqotni tog‘-chang‘i trassasida davom ettirib, birgalikda chang‘i uchdilar.

O‘ZA

Biz va dunyo

IKKI MAMLAKAT O‘ZARO MANFAATLI SHERIKLIKNI CHUQURLASHTIRISHGA INTILMOQDA

XORIJIY TAHLILCHILAR TOSHKENTDA BO‘LIB O‘TGAN OLIY DARAJADAGI O‘ZBEKISTON—BELARUS SAMMITI YAKUNLARI HAQIDA

Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkonning 7-9-fevral kunlari O‘zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlatning ko‘p qirrali o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlashga intilishidan dalolat berdi, deya ta’kidlamoqda xalqaro ekspertlar.

Jan-Antuan DYUPRA, Yevropada prognozlash va xavfsizlik instituti eksperti, O‘zbekiston bo‘yicha mutaxassis (Fransiya): — Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda O‘zbekiston Prezidenti etib saylanganidan buyon ochiq tashqi siyosat olib boryapti. Bu esa mamlakatga Markaziy Osiyo va dunyoning boshqa mintaqalarida tobora

muhim barqarorlashtiruvchi geosiyosiy rol o‘ynash imkonini bermoqda. Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkonning Toshkentga rasmiy tashrifi O‘zbekistonning pragmatik tashqi siyosat olib borayotganini namoyon etadi.

▶ Davomi 2-betda

Men yonmasam, sen yonmasang...

MAKTAB – BOSH MAQSAD, BIRINCHI MASALA VA NAJOT QAL’ASIDIR

Nihoyatda murakkab, tahlilakali, tahdidli va tajovuzkor dunyoda yashayapmiz. Jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalar, beqaror siyosat, gegemonlik vasvasasi, o‘zaro ziddiyatlar, millatchilik kabi bo‘hronlar bizdan ilm-fanga, ta’lim-tarbiyaga, ma’naviyat masalalariga har qachongidan-da ko‘proq e’tibor qaratishni talab etadi. Chunki taraqqiyot maydonida qolish yetuk, malakali, vatanparvar avlodga bog‘liq.



Sharqning buyuk faylasufi Konfutsiy “Bilimsizlik insoniyat uchun eng qorong‘i tundur”, deganida ming karra haq edi. Negaki, ilm insoniyatni yuksaklikka ko‘tar-sa, bilimsizlik uni faqat tubanlik, jarlik sari yetaklaydi. Bunga insoniyat tamaddunida misollar juda ko‘p. Shuning uchun ertasi-ning farovon bo‘lishini o‘ylagan jamiyat ilm sari intiladi, yoshlariga bilim o‘rgatish, ziyo tarqatish payida bo‘ladi.

O‘tgan asrning boshlarida yurtimizda faoliyat olib borgan jadidlar, ma’rifatpar-var bobolarimiz ham yurtni asriy qoloqlikdan olib chiqib, uni hur, obod mamlakatga

aylantirishning dastlabki poydevori ta’lim-da deb bilganlari bejiz emas. Bu haqda so‘z ketar ekan, beixtiyor Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo falokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, degan chuqur ma’noli fikri takror-takror yodimizga tusha-veradi. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham

shunchalik, balki undan ham ko‘proq dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bugun real voqeelikka aylangan yangi O‘zbekistonda qo‘yilayotgan Uchinchi Renessans poydevorining naqadar mustahkam bo‘lishi aynan zamonaviy ilm-fan asoslaridan boxabar, kamida ikki-uch tilda muloqot qila oladigan, o‘zi tanlagan kasb-hunar sirlarini puxta egallagan yoshlari-mizga bog‘liq.

▶ Davomi 3-betda

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Uyg‘oq fikr

YURTNING HAR BITTA TOSHI DAXLSIZ

Bir paytlar Toshkentning Beshyog‘ochida xalq tilida “shpanalar” deb ataladigan bezorilar to‘dasi bo‘lardi. Bular kun bo‘yi “Komsomol ko‘li” bo‘yidagi soya-salqin daraxtlar tagida o‘tgan-ketgan yosh-yalangga do‘q-po‘pisa qilib kun o‘tkazadigan, biron joyda yolchitib ishlamaydigan, na odoob-axloqni, na insoniylikni biladigan, o‘zidan kuchliga duch kelsa, pisib qoladigan bekorchilar bo‘lib, mustaqillikdan keyin, qonun ustuvorligi va adolat tiklangach, o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketdi.



Isajon SULTON,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi

Yoki mashhur adib G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridagi “qahramonlar”ni eslaylik:

“Tojixon jinni bitta ketmon dasta bilan o‘tgan-ketganni qavlab urib-so‘kib, “Ham-mang bir tomonga yur, tarqalib ketma. Niko-lay poshsho zamonida tartib kerak...” deyar edi. Bunga Olim jinni “Ahmoqsan, Toji, ahmoqsan. Yer axir taroziga o‘xshagan narsa bo‘ladi, hamma bir tomonga yursa, u bir tomonga og‘ib, hammamiz Qurdum daryoga g‘arq bo‘lib ketamiz-ku” dedi...”

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan, ezuq fikrli fazilatli kishilar taraqqiyot-ning eng xayrli yo‘nalishlarini izlayotgan va g‘arazlilar mustaqil davlatlarga turli yo‘llar bilan Zug‘um qilishga urinayotgan shu ko‘p qutbli dunyoda o‘shanday kishilarning qu-yushqonga sig‘maydigan tahdidlari o‘sha “qahramonlar”ni eslatadi.

Ustoz adibning asaridagi bu sahna bir oz kulgi yo‘sinida yozilgan bo‘lsa, neokolonializm vasvasalarini tilga keltirayotgan ayrim kishilar turli idoralarda yetarli ish tajribasiga, ma’lum auditoriyaga ega “ijtimoiy shaxslar” ekaniga hayron qolmay iloj yo‘q.

“Ayrimlar”, deb ularni umuminsoniyat-dan ayirishimizda jon bor, albatta. Jahon mamlakatlarining kishilari yorug‘ niyatlari, maqsadlari bilan bir-biriga o‘xshaydi. Bar-cha farovonlikda, to‘kinlikda va omonlikda, tinch-totuv yashashni orzu qiladi. Afsus, bad-bin o‘y-xayollariga berilib, G‘afur G‘ulom qahramonlariga o‘xshab qolgan odamlar ham bu turfa dunyoda yetarlicha topilar ekan.

Bunday chirkın maqsadlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘lida ijtimoiy tarmoqlarda qing‘in keltiruvchi qurol-yarog‘larni ko‘z-ko‘zlash, sobiq imperiya davridagi hayotni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan turli-tuman saytlar, portallar paydo bo‘ldi. Bir yodga qurol-yarog‘ vasvasasi, bir yodga o‘tib ketgan mustamlaka davrini qo‘msash kompaniyasi...

Biroq unday kaslarning niyatlari amalga oshmasligi tayin, chunki past-baland minbar-lardan aytilgan johilona tahdidlar kishilarning

orasida eng ko‘p muhokama qilingan mavzu-ga aylandi. Olimu muhandis, dehqon-u chor-vador, shifokor-u tadbirkor — barcha yurak to‘ridagi so‘zlarini aytdi.

— Uch yarim ming yildan ziyod shon-li tarixga ega o‘zbek xalqi zamonlarning turli-tuman chayqalishlari orasidan sog‘-omon o‘tib kelib, bugun ham o‘z davlatiga ega, yuksalishga yuz tutgan. Tarix sahnasi-da shuncha yil qolishning o‘zi bo‘ladimi? Ne-ne Zug‘um, bosqin va qing‘inlarni ko‘rdi, shukrki, Zug‘um qilganlarning birotasi yurt tuproqlarida qolmadi, hammasi tarix zulma-tida yo‘qolib ketdi. Bu yurtga ko‘z olaytir-ganlar bir kunmas-bir kun albatta, xor-zor bo‘lishi tayin, — deydi adabiyotchi do‘stla-rimizdan biri.

Davlatchiligimiz haqida so‘z borsa, shu qut-lug‘ tuproqlardan shimol tomon yo‘lga chiqqan, o‘sha hududlarda qudratli davlat va muntazam armiya tuzgan ulus farzandi Botir Tangriqut yodga keladi. Uni bugungi fan Mete yoki Mode deb ataydi. O‘sha paytlarda qudratli sanalgan dunxu elining hukmdori Botir Tangriqutga elchi yuborib, eng yaxshi otini, cho‘risini va mamlakatning bir chetidagi unumsiz yerlarni o‘ziga berishini so‘raydi. Shunda Botir Tang-riqut deydi: “Istaganlaringni bersam bo‘ladi. Biroq yurtim yerining bir parchasini ham sen-ga bermayman”. Elchi hayron bo‘lib, buning sababini so‘raganida, “Chunki u yurtimning, xalqimning yeri, davlatimning asosidir”, deb javob beradi. O‘zlik ruhining naqadar qudratli-ligiga yorqin misol bu.

O‘zbekistonda keyingi yillarda ro‘yobga chiqqan juda keng ko‘lamli jarayonlar nati-jasida mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilgani jahonning ilg‘or fikrli mutaxassislari tomonidan e’tirof etildi. Qisqa davr mobaynida ham davlatchilik, ham ijtimo-yi jamiyat tub yangilanishlarga yuz bur-di. Imperiyachilik davrida sodir qilingan va mustaqillikning ilk yillarida ham oqavalari sizib turgan juda ko‘p nojo‘ya holatlarga, qanchadan-qancha adolatsizliklarga barham berildi, kishilar manfaat ilg‘or maqsad qilib qo‘yildi.

Yurtimiz juda katta yuksalishga hozirlik ko‘rmoqda. Chunki dunyoning asosiy fikr, moliya va ishlab chiqarish markazlari Sharq

tomon siljimoqda. Bu jarayon tobora tezlash-moqda. O‘zbekistonning taraqqiyot strategi-yasida ko‘zda tutilgan ko‘lamli maqsadlardan biri ham shu: mamlakat Sharq va G‘arbni bog‘lovchi asosiy fikr, iqtisod, transport oqim-larini o‘tkazuvchi muhim “xab”ga aylanmoq-da, juda katta ko‘lamli “sakrash”ga tayyor-garlik ko‘rmoqda. Jamiyatimiz, qonunlarimiz shu sababli o‘zgarmoqda, Markaziy Osiyo bu yo‘ldagi o‘ta muhim chorraha bo‘ladi.

Bizning davlatchilik an‘analarimiz ko‘p asrlik adolat, tenglik, xalq farovonligi, to‘kis kelajakni barpo etishday xayrli maqsadlarni o‘zida jamlagan, davlatlararo munosabata-rimiz sharqona vazminlik, donolik, yetti o‘lchab bir kesish, o‘zaro hurmat, yaxshi qo‘shnichilik an‘analariga asoslangan. Mam-lakatimiz bu boradagi barcha yaxshi an‘analarni tiklab, o‘z taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay, matonat bilan ilgariib bormoqda. Qaylarda-dir, kimlardir bir nima degani bilan endilikda bu hayotiy jarayonlarni o‘zgartirishga zamon-ning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi. Boshqacha aytgan-da, unday Zug‘umchilar dunyoqarashi kechagi kunda qolib ketgan, kelajakni tasavvur qila olmaydigan kishilardir.

Bunday johilona, havoyi, insonlik axloqiga to‘g‘ri kelmaydigan xomtama orzularda ya-shayotganlar bugungi kunda ham uchrayotgani juda achinarli holat. Zamonaviy dunyoda kuch bilan tahdid qilish shunchalar kulgili va nodon-larcha tutumki, undaylar hanuzgacha ibtidoiy tushunchalar bilan yashab kelayotganini ko‘r-satib turadi.

Nachora, “salomga yarasha alik”, dey-dilar. Bunday tahdidlarning oldini olish uchun davlatimizning qudrati, salohiyati yet-arli, eng asosiysi — xalqimizning o‘y-fikri bu borada yakdil.

Albatta, yurtimiz hurriyatiga hech kim, vallomati bo‘lsa ham, cho‘p ota olmaydi. Ko‘p asrlar mobaynida yaratilgan tengsiz tafakkur xazinalarining vorisi o‘laroq, shun-cha yillik yaratuvchilik, bunyodkorlik, qah-ramonlik tarixiga egalik qilish va asriy ezuq an‘analarni davom ettirish bizning milliy g‘ururimiz o‘zagini tashkil qiladi.

Boshqacha aytganda, xalqimiz ona yurt-ning bitta toshiga ham kimlardir daxl qilishi-ga aslo yo‘l qo‘ymaydi.

Inson qadri uchun

HAYOT BIR KUN, O‘SHA KUN BUGUN!



▶ Gapning rosti, avvallari odamlar bilan uchrashish, muloqot qilishdan o‘zimizni olib qochganmiz. Chunki ishsizlik, yo‘l, suv, elektr, gaz ta’minoti bilan bog‘liq ko‘plab masalalar ularning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lgan edi. Endi bu boradagi ish amallari o‘zgardi.

▶ Har qanday mamlakatda ham ishlamagan, mehnat qilmagan odam non topolmaydi. Zamonaviy va ko‘rkam binolar, dam olish maskanlari, to‘kin-sochinlik, qulay shart-sharoitlar mehnat va izlanishlar mahsuli.

4

Ahmadali ASQAROV: ARXEOLOGIK OBYEKLARNI BEZAVOL SAQLASH VA MUZEYGA AYLTIRISH VAZIFASI QO‘YILGAN, AMMO NECHUN SUSTKASHLIK?..



“O‘zbeklar 4 ming yil oldin paxta ekan, ipak matolar Xitoydan oldin bizda ishlab chiqarilgan ekan.

“Arxeologik obyektlarni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirishga pul ajratilyapti, lekin bu mablag‘ joyiga yetib borayaptimi yo‘qmi, degan savol bor.

5

Tahlil minbari

XABARXO‘RANDALIK Biz qanday axborot iste‘mol qilyapmiz?



“Axborotning ko‘payib ketishi “axborot bulimiyasi”ni ko‘paytirmoqda, ya’ni insonlarni tobora yangilikka o‘ch qilib qo‘ymoqda.

“Aynan yangiliklar orqali vatanparvarlik ham, odamiylik ham ikkinchi darajali, degan tushunchalar singdirilayotgandek go‘yo. Vatanparvarlikni so‘ndirish kimga kerak?

6

Biz va dunyo

IKKI MAMLAKAT O‘ZARO MANFAATLI SHERIKLIKNI CHUQURLASHTIRISHGA INTILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Ikki davlat rahbarlari va delegatsiyalari oʻrtasidagi muzokaralarda davlatlararo munosabatlarning barcha yoʻnalishlari, jumladan, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, qishloq xoʻjaligi, fan va taʼlim, shuningdek, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Oʻzaro tovar ayirboshlash hajmini oshirishga alohida eʼtibor qaratilib, kelgusi yillarda bu koʻrsatkichni 1 milliard dollardan oshirish rejalashtirilgan.

Mintaqaviy va global kun tartibiga kelsak, Oʻzbekiston va Belarus mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida koʻp tomonlama hamkorlikni rivojlantirayotganini alohida taʼkidlash joiz.

Oʻzbekiston — Belarus oliy darajadagi uchrashuvi mustahkam hujjatlar toʻplamining imzolaniishi bilan yakunlandi, bu tomonlarning koʻp qirrali sheriklikni yanada rivojlantirishga intilishidan dalolat beradi.

Ditrix FETCH,
“ESG Holding” kompaniyasi hammuassisi va direktorlar kengashi aʼzosi (Germaniya):

— Keyingi yillarda Oʻzbekiston — Belarus hamkorligi sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarilib, hamkorlikda foydalanilmagan xaziralarning keng imkoniyatlarini ochmoqda.

Bu, eng avvalo, ikki davlat rahbarlari — Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukashenko oʻrtasida yoʻlga qoʻyilgan faol va ochiq siyosiy muloqot natijasidir.

Belarus Prezidentining Toshkentga rasmiy tashrifi chogʻida ikki davlat rahbarlari barcha darajada, jumladan, xalqaro tuzilmalar — BMT, MDH, SHHT, shuningdek, hukumat rahbarlari, parlament aʼzolari, vazirliklar va viloyatlar miqyosida koʻp qirrali muloqotni mustahkamlashga kelishib oldilar.

Samarali muzokaralar natijasida ikki davlat rahbarlari Qoʻshma bayonot qabul qildi. Shuningdek, Oʻzbekiston bilan Belarus oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha 2024-2025-yillarga moʻljallangan aniq harakatlar rejalari belgilab olindi. Ularda barcha darajadagi aloqalarni faollashtirish, savdo aylanmasini oshirish, hamkorlik loyihalari, madaniy-gumanitar almashinuv va boshqalar nazarda tutilgan.

Belarus bilan hamkorlikni rivojlantirish Oʻzbekiston tashqi siyosatida muhim oʻrin tutadi. Oʻtgan yili mamlakatlar oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatilganiga 30 yil oʻtdi. Ushbu tarixiy davrda Oʻzbekiston va Belarus chinakam yaqin, ishonchli aloqalarni har tomonlama mustahkamlashga erishdi. Oʻzbekiston va Belarus yetakchilarining Toshkentda boʻlib oʻtgan samarali va doʻstona uchrashuvi koʻp qirrali hamkorlik rivojiga yangi surʼat bagʻishlaydi, deb oʻylanman.

Cheve Xon YA,
Sunmun universiteti professori, Koreya Respublikasining Oʻzbekistondagi sobiq elchisi:

— Ikki mamlakat rahbarlarining uchrashuvi Toshkent va Minskning davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirish kabi qator dolzarb yoʻnalishlar boʻyicha qarashlari yaqinligini yana bir bor namoyon etdi.

Inson qadri uchun

MAʼRIFAT DUNYONI ANGLASH YOʻLIDIR

Inson abadiy yashamaydi, ammo uning maʼnaviy olamidani yaralgan ezgu gʻoyalari abadiydir. Odamzod qoʻlidagi tarozi ikki pallasining birida iqtisodiyot, ikkinchisida maʼnaviyat turadi. Maʼnaviyat pallasida tosh bosib tursa, jamiyat rivojlanadi.

Gulbahor SAIDGʻANIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Bugun xalqimizning maʼnaviy xazinasini asrab-avaylash, uni yuksak qadriyat oʻlaroq dunyoga koʻrsatish yoʻlida katta saʼy-harakatlar bor. Jumladan, 100 jildli “Turkiy adabiyot durdonalari”, 30 jildli “Mustaqillik davri navoiyshunosligi” kabi bir necha adabiy jamualar yaratilishi muhim voqeilik boʻldi. Yaqinda Turkiya va Ozarbayjonda “Turkiy adabiyot durdonalari” majmuasi taqdimoti oʻtkazildi.

Ajdodlarimiz tarix oldida arziqli ishlar qilgan. Uzoqqa bormaylik, yaqin oʻtmishimizda Turkiston jadidlarining juda katta salohiyati, vatanparvarligi bilan mislsiz ijtimoiy-siyosiy hodisalar yuzaga chiqqan. Ular faoliyati, ilgari surgan gʻoyalari bugungi Oʻzbekiston siyosatiga hamohangdir. Mazkur jarayon taʼlim sohasini isloh qilishdan boshlangan edi. Milliylikni ulugʻlagan holda zamonaviy dunyo ilm-fani, xorijiy tajribalarni ham oʻrgangandi. Chunki mamlakat bolalariga, aholisiga maʼrifat bermaguncha, chin savod oʻrgatmaguncha dunyoni anglash mumkin emas.

Millat, Vatan taraqqiyoti yoʻlida fidoyilik uchun, avvalo, milliy oʻzlikni anglash muhim.



Bugungi Oʻzbekistonda maktab taʼlimidagi islohotlar tufayli oʻquvchilar ikki xorijiy til va kasb-hunar oʻrganib chiqishining yoʻlga qoʻyilishi ham dunyo maydonida oʻzbekning oʻzligini topishiga qoʻyilgan qadamdir.

Dunyo qutblarida yangicha tartiblar yuzaga kelayotgan, tahlikali va murakkab vaziyatlar paydo boʻlayotgan hozirgi vaqtda vatanparvarlik hissi har doimgidan koʻproq kerak boʻladi. Baʼzan tarmoqlarda oʻzga gʻoyalari tufayli bir-biri bilan jiqqamush olishayotgan yoshlarni koʻrib,

Ishonchim komilki, bugungi global inqiroz davrida Prezidentlar mintaqaviy kun tartibini, ikki davlatning integratsiya tuzilmalari hamda xalqaro maydondagi oʻzaro hamkorligini yanada batafsil muhokama qildilar.

Tashrif arafasida oʻtkazilgan Hukumatlararo komissiya, Hududlararo forum, Ishbilarmonlar kengashi, Oliy oʻquv yurtlari va tibbiyot muassasalari rektorlari forumi kabi qator tadbirlar oʻzining samarali mevasini beradi. Natijada, tomonlar oʻrtasida energetika va sanoat, qishloq xoʻjaligi, madaniyat, fan, taʼlim, sport va turizm kabi ustuvor yoʻnalishlarga oid 15 dan ortiq hujjatlar imzolandi.

Xususan, “2024-2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini” alohida eʼtiborga loyiq. Bu ikki mamlakat oʻrtasidagi oʻzaro tovar ayirboshlash hajmini yanada oshirishga yordam beradi.

Yan BO,
Shanxay chet tillar universiteti huzuridagi Rossiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi direktori oʻrinbosari:

— Oʻzbekiston va Belarus oʻrtasidagi ikki va koʻp tomonlama munosabatlar izchil rivojlanib bormoqda. Mamlakatlar xalqaro maydonda bir-birini qoʻllab-quvvatlab, mintaqalararo va koʻp tomonlama platformalarda, jumladan, BMT, MDH, SHHT, Qoʻshilmalik harakati doirasida samarali hamkorlik qilyapti.

Ikki davlat rahbarlari oʻrtasidagi doʻstona munosabatlar esa davlatlararo samarali muloqotni rivojlantirishga xizmat qilayotir.

Shuningdek, Belarus Prezidentining Oʻzbekistonga ushbu tashrifi chogʻida tovarlarni elektron sertifikatlashtirish, ilmiy-ishlab chiqarish kooperatsiyasi, energetika, madaniyat va sanʼat, taʼlim kabi muhim yoʻnalishlarni qamrab oluvchi mustahkam kelishuvlar toʻplami imzolandi.

Ikki davlat rahbarlari oʻrtasidagi hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda.

Mamlakatlar oʻrtasidagi hamkorlik aloqalari rivojlantirish boʻyicha qiziqarli tajribaga eʼtibor qaratmoqchiman. Keyingi yillarda qoʻshma korxonalar soni 4 barobar ortgani quvonarli.

Muhammad Tolib Bin Mohamad Raja MOHAN,
Islom hamkorlik tashkilotining Malayziyadagi Xalqaro ishblarmonlik markazi bosh ijrochi direktori:

— Oʻtgan yillar davomida Oʻzbekiston — Belarus koʻp qirrali munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarildi. Xususan, oliy va yuqori darajadagi muloqot faollashdi. Ishbilarmonlar kengashi va hududlararo forum mexanizmlari yoʻlga qoʻyildi, ikki mamlakatning yetakchi korxonalari oʻrtasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda.

Mamlakatlar oʻrtasidagi hamkorlik aloqalari rivojlantirish boʻyicha qiziqarli tajribaga eʼtibor qaratmoqchiman. Keyingi yillarda qoʻshma korxonalar soni 4 barobar ortgani quvonarli.

Yurtimiz siyosatida jamoatchilik fikri muhimligi koʻzga tashlanadi. Davlat dasturlari xalq muhokamasida boʻlishi, yirik dasturlar jamoatchilik fikri, takliflari asosida qabul qilinishi, unda xalqning ishtiroki, jamoatchilik fikri eʼtiborga olinishi biz erishgan muhim yutuqlardan. Bunga javoban biz, ziyolilar, jamiyatning har bir aʼzosi ham oʻz davrimizning jadidi kabi Vatan uchun, uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy yuksalishi uchun xizmat qilishimiz shart.

Mamlakatimizda yuritilayotgan tashqi va ichki siyosat, islohotlar bugun qonunlarda aks eta boshladi. Bu parlament hayotida ham boʻy koʻrsatmoqda. Parlament aʼzolari ayni kunda

Bu, albatta, yangi ishlab chiqarishlar tashkil etish va ularni mahalliy-lashtirish, ish oʻrinlari yaratish, yangi bozorlarni oʻzlashtirishni ragʻbatlantirmoqda.

Tomonlarning qoʻshma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish toʻgʻrisidagi kelishuvi va Oʻzbekiston Prezidentining respublikada “BelAZ” rusumli avtomashinalarni hamkorlikda ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish taklifi alohida eʼtiborga loyiq.

Shu bilan birga, yengil sanoat, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika, shaharsozlik va kommunikatsiya sohalarida qoʻshma loyihalarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Ushbu tashrif oʻzaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamo-yillariga asoslangan Oʻzbekiston — Belarus hamkorligining butun spektrini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Gaurav GUPTA,
Hindiston Global savdo va texnologiyalar kengashi prezidenti:

— Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonning xalqaro munosabatlarida yaqqol koʻzga tashlanayotgan jihat bu — amaliy qoʻshma loyihalarni hayotga joriy etish va oʻzaro hamkorlikning amaliy natijalariga erishish boʻyicha qilinayotgan tizimli saʼy-harakatlardir. Bu Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro safarlari va xorijiy davlat rahbarlarining Toshkentga tashriflari chogʻida izchil kuzatilmogʻda.

Belarus Prezidenti tashrifi doirasida ikki mamlakat ishblarmon doiralari vakillarining amaliy muloqotlari, hududlar, oliy oʻquv yurtlari rektorlari, tibbiyot xodimlari forumlari tashkil etilgan, qishloq xoʻjaligi, yengil, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika,

shaharsozlik, kommunikatsiyalar va boshqa oʻzaro manfaatli yoʻnalishlardagi aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilangani ham hamkorlikning amaliy jihatlariga katta eʼtibor qaratilayotganidan dalolatdir.

2023-yil yakunlariga koʻra, oʻzaro tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshgani, soʻnggi yillarda qoʻshma korxonalar soni 4 barobar koʻpaygani ham eʼtiborga molik koʻrsatkich.

Toshkentda imzolangan salmoqli hujjatlar toʻplami, jumladan, Oʻzbekiston va Belarus hududlari ikkinchi forumi yakunida qiymati 1 milliard dollardan ziyod shartnoma va bitimlarga erishilgani ikki davlat oʻrtasidagi hamkorlik munosabatlarga yangicha mazmun kasb etadi hamda amaliy saʼy-harakatlar samaradorligining yuksalishiga xizmat qiladi.

Muhammad Yaqub SHAYYX,
Pokiston Senati aʼzosi:

— Belarus Prezidentining Oʻzbekistonga tashrifi oʻzaro manfaatli ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Taʼkidlash joizki, uchrashuvning birinchi kuni ikki davlat rahbarlari doʻstona ruhdagi oʻtgan xokkey oʻyinini borib koʻrgani chuqur ramziy maʼnoga ega va ikki davlat rahbarlari oʻrtasidagi ishonchli munosabatlardan dalolat beradi.

Oʻzbekiston va Belarus rahbarlarining diqqat markazida davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirishga qaratilgan.

Belarus Prezidentining tashrifi doirasida Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi majlisi, mintaqalararo forum va boshqa tadbirlar muvaffaqiyatli oʻtdi, uning natijasida umumiy qiymati 1 milliard dollardan ortiq shartnoma va kelishuvlar imzolandi.

Muzokaralar chogʻida davlat rahbarlari qishloq xoʻjaligi, yengil sanoat, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika,

shaharsozlik va boshqa sohalaridagi hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlarini belgilab oldilar. Oʻzbekiston va Belarus rahbarlari oʻzaro tovar ayirboshlash hajmini milliard dollardan ortiq darajaga yetkazish vazifasini qoʻyidilar.

Markaziy Osiyo va MDH davlatlari yoʻnalishida faoliyat yurituvchi transport-logistika kompaniyasi rahbari sifatida mamlakat rahbarlarining yuk tashish uchun oʻzaro qulay shart-sharoitlar yaratish va yuk tashish yoʻnalishida Janubiy Osiyo bozorlari multimodal koridorlaridan samarali foydalanish toʻgʻrisidagi qarori meni quvontirdi. Biz bu tashabbusni qoʻllab-quvvatlaymiz va qoʻshilishga tayyormiz.

Andrey GROZIN,
Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi:

— Tashrifni har ikki tomon uchun ham juda muvaffaqiyatli, deb talqin qilish mumkin.

Bu ikki davlat rahbarlarining uchrashuvi qanday ohangda oʻtganini bilan izohlanadi. Oʻzbekiston va Belarus rahbarlari oʻrtasida doʻstona, oʻta iliq munosabatlar borligi yaqqol koʻrindi.

Tashrif yakunlari boʻyicha imzolangan kelishuv va bitimlar turizm, sogʻliqni saqlash, taʼlim, fan, madaniyat sohalaridagi hamkorlikdan tortib, ishlab chiqarish, energetika, transport kabilar bilan bogʻliq amaliy masalalargacha boʻlgan juda keng qamrovga ega.

Chuqurlashib borayotgan sheriklik bugungi qiyin vaziyatda rivojlanmoqda. Chunki iqtisodiy va boshqa sohalarida xalqaro raqobatning kuchayishi har qanday xalqaro munosabatlar uchun jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda Toshkent yangi transport yoʻllaklarini qurish va mustahkamlash strategiyasini maqsadli ravishda amalga oshiryapti.

Aholi soni boʻyicha sobiq ittifoq hududida amalda ikkinchi davlatga aylangan Oʻzbekiston jadal surʼatlar bilan mintaqaning asosiy transport markaziga aylanib bormoqda. Toshkent ishtirokiz esa hech qanday yirik loyihalar amalga oshirilmaydi.

Karlagash ASHIRXANOVA,
KAL Dostmuhammaddov nomidagi Atirau universitetining xalqaro aloqalar va xalqarolashtirish boʻlimi boshligʻi:

— Toshkentda boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston va Belarus yetakchilarining uchrashuvi, haqiqatan, zamonaviy geosiyosiy dinamika sharoitida muhim voqeadir. Mutaxassislarning qayd etishicha, ikki davlat oʻrtasida hamkorlikning yangi yoʻnalishlari yoʻlga qoʻyilgani nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy nuqtayi nazardan ham muhim qadam hisoblanadi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik dinamikasi va qoʻshma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish va eksport-import yetkazib berishni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari kabi erishilgan kelishuvlar fonida ikki davlat oʻzaro manfaatli sheriklikni chuqurlashtirishga intilayotgani yaqqol namoyon boʻlmoqda. Ushbu qadamlar doʻstona munosabatlarni mustahkamlashga, turli sohalaridagi kelgusi hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ikki mamlakat prezidentlarining uchrashuvi oʻzaro manfaatli sheriklikni chuqurlashtirish va mustahkam aloqalarni oʻrnatish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

“Dunyo” AA

Hamkorlik

TURKIYADA O‘ZBEK TILI VA MADANIYATI MARKAZI OCHILDI

Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbek tili va adabiyoti universiteti, mamlakatimiz elchixonasi hamda Istanbuldagi Bosh konsullik hamkorligida Turkiyaning Bursa shahrida Oʻzbek tili va madaniyat markazi ochildi.

Uludagʻ universitetida tashkil etilgan markazning ochilish marosimida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY, Turkiya Milliy taʼlim vazirligi vakillari va mahalliy navoiyshunos olimlar hamda talabalar ishtirok etdi.

Tadbirda soʻz olganlar markazning ochilishi Oʻzbekiston va Turkiya oʻrtasidagi ming yillik qardoshlik rishtalariga asoslangan munosabatlar natijasi ekanini taʼkidladi.

— Bugun biz uchun, haqiqatan, juda muhim kun. Chunki uzoq yillardan beri rejalashtirib kelinayotgan Oʻzbek tili va madaniyati markazini ochish sharafiga muyassar boʻldik. Soʻnggi yillarda ikki davlat rahbarlari oʻrtasida qaror topgan yaqin va doʻstona munosabatlar turli jabhalarda oʻzbek-turk hamkorligi rivojiga muhim zamin yaratmoqda. Oʻzbek tili va madaniyati markazi ham Bursa ahli, xususan, Uludagʻ universiteti talabalari oʻrtasida Oʻzbekiston tarixi va madaniyati, oʻzbek tili va adabiyotini oʻrganishni targʻib qiladigan maʼrifat maskaniga aylanishiga ishonchim komil. Oʻzbekiston tomonidan taqdim etilgan oʻzbek tilidagi kitob va adabiyotlar hamda oʻzbek sanʼatini namoyon qiluvchi hunarmandlik ashyolari talabalarimiz uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi, — dedi Uludagʻ universiteti rektori Ferudun Yilmaz.

Mazkur markaz oʻzbek tili va madaniyatini Turkiyada targʻib qilish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim ilm oʻchogʻi boʻladi. Buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi munosabati bilan aynan Uludagʻ universitetida tashkil etilgan “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro konferensiya markazning bu boradagi ilk tadbirlaridan biri boʻldi.

“Dunyo” AA
Bursa shahri

XXI asrga kelib, dunyoda inson kapitali masalasi kun tartibiga chiqdi va mustahkam o‘rin egalladi. Mamlakatlar reytingini belgilashda asosiy talablardan biri ham inson kapitalidir. O‘zbekistonda bu borada juda muhim qadamlar tashlandi. Avvalo, maktabgacha ta’lim tizimi yangidan tashkil etildi. Xalq ta’limi sohasida 11 yillik maktab ta’limi tiklandi. Samarasiz kasb-hunar kollejlari yopildi. O‘qituvchi va o‘quvchilar majburiy mehnatdan ozod qilindi.

Men yonmasam, sen yonmasang...

MAKTAB – BOSH MAQSAD, BIRINCHI MASALA VA NAJOT QAL’ASIDIR



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Shu haqda so‘z yuritganda, quyidagi misolga e’tibor qaratishni lozim topdim. Ikkinchi jahon urushi davrida Buyuk Britaniya bosh vaziri Uinston Cherrchillga tanishib chiqish uchun mamlakat byudjetini keltirishgan ekan. U hujjatga ko‘z yugurtirib, so‘rabdi:

— Madaniyat va ma’rifat masalalariga xarajatlar qani?

— Axir urush ketyapti, qanday madaniyat?— debdi hujjani olib kirgan kishi.

— Agar madaniyat va ma’rifat yo‘q bo‘lsa, unda nima uchun urushyapmiz? — deya hayrat bilan so‘rabdi Cherrchill.

Hozir dunyo notinch. Shunday og‘ir sharoitda murakkab va keskin muammolarga to‘qnash kelayotganimizga qaramasdan, ilgama e’tiborni kuchaytirishimiz shart. Davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi”, degan fikrida o‘ta muhim strategik g‘oya mujassam. Darhaqiqat, maktab — muqaddas dargoh. Maktabning rivojlanishi, yuksalishi, taraqqiy etishi muhim va zaruradir. Buni anglab yetganlar allaqachon maktab ta’limiga alohida e’tibor qaratmoqda. Natijada maktablar millatga ta’lim-tarbiya bermoqda. Tafakkurini tiniqlashtirmoqda. Ta’lim, u maktabgacha ta’lim bo‘ladimi, xalq ta’limi yo oliy ta’lim bo‘ladimi, tizim bir butunlikda inson kapitalini yaratish va rivojlantirishning bosh omili hisoblanadi.

XXI asrga kelib, dunyoda inson kapitali masalasi kun tartibiga chiqdi va mustahkam o‘rin egalladi. Mamlakatlar reytingini belgilashda asosiy talablardan biri ham inson kapitalidir. O‘zbekistonda bu borada juda muhim qadamlar tashlandi. Avvalo, maktabgacha ta’lim tizimi yangidan tashkil etildi. Xalq ta’limi sohasida 11 yillik maktab ta’limi tiklandi. Samarasiz kasb-hunar kollejlari yopildi. O‘qituvchi va o‘quvchilar majburiy mehnatdan ozod qilindi. Muallimning maoshi bir necha barobar oshdi. Maktablar moddiy-texnik bazasi yangilandi. Oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalari yildan-yilga oshib bormoqda. Professor-o‘qituvchilarning iqtisodiy ahvoli tubdan yaxshilandi. Talaba va domlalar paxta terimi, turli xil hasharlardan xalos bo‘ldi. Yoshlarning oliy ma’lumot olish imkoniyati kengaydi. Xalqaro nufuzga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarining filiallari ko‘paydi.

Xo‘sh, mamlakatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ta’lim islohotlariga mutasaddilar qanday javob qaytarmoqda? Maoshi ko‘tarilgan muallim, domla o‘z dunyoqarashini o‘zgartirdimi? Ta’lim sifatini yaxshilash uchun jon kuydiryaptimi? Sinfxonada, auditoriyada mamlakatning ertangi kuni, kelajagi borligini anglab yetyaptimi? O‘zbekiston chorak asr davomida, ayniqsa, ta’lim sohasida juda ortda qolganini, jahon ta’lim standartlaridan uzoqlashib ketganini biladimi? Savollar ko‘p, jo‘yali javob yo‘q.

Hukumat o‘qituvchi va olimlar oldidagi o‘z majburiyatini bajardi. Bugun hatto 1000 dollardan oshirib maosh olayotgan maktab o‘qituvchilari soni anchagina. O‘z ustida ishlayotgan, malakali maktab muallimlariga ham e’tibor kuchaydi. Ammo baribir faoliyatimizdan o‘zimizning ko‘nglimiz to‘lmaydi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “**Agar rahbarlar, muallimlar, yangi O‘zbekistonga munosib harakat qilsa, farzandlarimizni davr talabiga mos o‘qitishimiz mumkin. Xalqimiz biza eng katta boyligini — zurriyodini ishonib beraypti. Bu juda katta mas’uliyat. Shuni his qilib, o‘zimizni qiyamb, maktabni isloh qilsak, kelajakka zamin yaratamiz.**”.

Ushbu talab juda o‘rinli va o‘z vaqtida qo‘yilmoqda. Farzandlarimizning umrini behuda o‘tkazayotgan, dars — muqaddas tamoyilga amal qilmaydigan, oladigan maoshini

oqlamaydigan o‘qituvchilar ham uchrab turadi oramizda. Lekin tanqidlardan, ko‘rilgan chora-tadbirlardan keyin o‘qituvchilar faoliyatida ham, o‘quvchilar bilim va saviyasida ham ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Buning isbotini yarim asrdan ko‘proq vaqt talabalarga dars berayotgan pedagog sifatida tanamda his qilyapman.

Abituriyent va talabalar bilan suhbatda bo‘laman. Masalan, 2022-2023-o‘quv yilini bitirgan o‘quvchilarning ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqi baland. Ular informatika, matematika, xorijiy tillar kabi fanlar bo‘yicha yuqori o‘zlashtirishga ega. Ammo tarix va adabiyot fanlari bo‘yicha bilimlari ancha sayoz. Bu esa mamlakatimizning yurtga daxldor, ma’naviyatli va vatanparvar farzandlarni tarbiyalash bo-rasidagi maqsadlariga mos emas. Axir biz orzu qilgan farzandlar uyg‘oq va har tomonlama barkamol bo‘lishi kerak. Hech narsaga befarq bo‘lmasligi lozim.

Bugungi axborot va yuqori texnologiyalar asrida faqat zamonaviy qurol-aslahalarning o‘zi mamlakatning tinchligi va barqarorligini ta’minlay olmaydi. Axborot maydoni haqiqiy jang maydoniga aylanib bo‘ldi. Axborot kanallari o‘tkir va tezkor qurol sifatida tobora kuch olmoqda. Bu esa aynan ana shunday xurujlarga qarshi tura oladigan farzandlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bunda hamma narsani maktab hal qiladi. Aynan ma’naviy-ruhiy tarbiya kerak paytda qalqon, kerak paytda himoya qurolli vazifasini o‘tay oladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “**O‘z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat qanday**

Tarixga nazar tashlang, mamlakatlar qachon qudratli bo‘lgan? Qachon taraqqiy etgan? Qachon gullab-yashnagan? Qachon xalq farovon va boy yashagan? Albatta, ilm-fan va ta’lim rivojlanganda. Minglab maktab va madrasalar qurilganda. Shaharlarimiz markazidagi eng baland, eng muhtasham imoratlar madrasalar bo‘lganda. Achchiq bo‘lsa-da, yana bir bor takrorlaymiz, maktabni yangilash kerak.

qudratli qurolga ega bo‘lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi”. Bunday millat bir kun g‘animlar tomonidan mahv etilishi mumkin.

Demak, ma’naviy-ruhiy, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishda yozuvchi va shoirlar, kino, teatr, televideniye ijodkorlari, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar oldida muhim vazifalar turibdi. Bugun yozuvchilarimiz o‘quvchilar uchun zamonamiz qahramonlarini ko‘rsatib beradigan asarlarni, obrazlarni yaratishi kerak.

Bir paytlar Pavel Korchagin, Valentin Kotik, Zoya Kosmodemyanskaya kabi qahramonlar obrazini miyamizga quyishgan. Begona millat qahramonlariga havas qilib katta bo‘ldik. Bugun ham ijtimoiy hayotimizda shunday achinarli holatlar uchrab turibdi. Bolalarimiz Jumong, De Joyong kabi koreys va boshqa millatlar qahramonlari mohirona tasvirlangan seriallarni ko‘rib katta bo‘lyapti. Ularga havas qilyapti. Xo‘sh, o‘zimizda o‘mak qilib ko‘rsatsa bo‘ladigan ajdodlarimiz yo‘qmi? Bor. Hatto ular yuzlab kinofilmlar va seriallarga sig‘maydi. Buning uchun millatparvar, yurtparvar bo‘lishimiz, ertangi kunimiz uchun kuyinishimiz kerak.

O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov ijrosida aytilgan “**Kim Vatanga qalqon bo‘lsa, mendirman o‘sha!**” degan qo‘shiq bugun ulug‘ sarkarda Jaloliddin Manguberdi timsolida millionlab farzandlarimiz yuragida mardlik va jasorat, vatanparvarlikni ulg‘aytirishga xizmat qilmoqda. Ammo bu kabi yurakni junbushga keltiruvchi, yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiruvchi qo‘shiqlar ko‘plab yaratilishi lozim. Zero, mardlik mardlikni uyg‘otadi, er yigit so‘zi er yigitni kamolga yetkazadi.

Ajdodlarimiz mardligi, jasorati bilan asrlar davomida dushmanlarni qo‘rquv va tahliklarga solib kelgan. Zero, **sher bor joyga qashqir yo‘lmas, deb bejiz aytmaganlar**. Vatanimiz tarixida aynan vatanparvarlik tuyg‘usi sabab o‘zidan son jihatdan bir necha o‘n barobar ko‘p bo‘lgan qudratli lashkarlarni yenggan qanchadan-qancha jasur ajdodlarimiz o‘tgan. To‘maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur Mirzo — bular ma’naviy ruh, mardlik va shijoat,



farzandlarimiz ongida yurt taqdiriga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirish biz — ziyolilar oldidagi eng ustuvor masala bo‘lib qolaveradi. Ijod ahli mard va jasur ajdodlarimizni, sarkardalarimizni, jaded bobalarimizning yorqin siyosini kinolarda, spektakllarda, matbuotda, asarlarda ko‘rsata olsak, yurtdoshlarimizni, yoshlarimizni, hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyorlashga erisha olamiz. Bular oddiy masalalar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar.

Qisqasi, maktab ham, muallim ham, jamiyat ham, ota-ona, oila, mahalla ham maktab ishiga nisbatan o‘zgarishi shart, yangilanishga, uyg‘onishga majbur. Bundan boshqacha bo‘lmaydi. Shu o‘rinda, nafaqat maktab, balki oliy ta’lim muassasasi ham o‘z ish uslubini, ta’lim-tarbiya berishni butunlay zamonaviylashtirishi kerak.

Biz ta’limning kuch-qudratini, mazmun-mohiyatini to‘liq anglab yetganimiz yo‘q.



merosini yanada chuqur o‘rgansak, ularni kino tasmlariga, ekranlarga olib chiqsak, ertangi kun egalari vatanparvar bo‘lib yetishadi.

Tarixdan ma’lumki, Vatan ozodligi uchun kurash masalasi allomalar asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh maslagi bo‘lib kelgan. Vatan tarixini bilgan, ulug‘ ajdodlar merosini chuqur o‘rgangan har bir inson qalbida milliy g‘urur-iftixor tuyg‘ulari yanada jo‘sh urib, el-yurtga sadoqati ortib boraveradi. **Inson qalbidan millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi.** Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi.

Demakki, Vatan sha’ni, or-nomusini jon-jahdi bilan himoya qiladigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama komil insonni tarbiyalash, buning uchun

birgina Osiyo yo‘lbarslari, deb atalgan Singapur, Janubiy Koreya, Malayziya kabi davlatlar taqdirini ta’lim qanchalar o‘zgartirib yuborganiga ahamiyat bermaymiz. Ular ming mashaqqatlar bilan mustaqillikka erishgan paytda iqtisodiy og‘ir ahvolda edi. Dastlab ishini ta’lim islohotidan boshladi. **Vijdonli, fidoyi, millatparvar, vatanparvar muallimlar millatni tanazzuldan olib chiqdi.** Jahon tarixidan bunday misollarni ko‘plab keltirsa bo‘ladi.

Bizda barcha sharoitlar muhayyo, biroq ta’lim sifati past. Bunda faqat o‘qituvchilarni ayblaymiz. Jamoatchilik va ota-onalar aybsiz go‘yo. Ko‘pchilik ota-onalarimiz uchun maktab bu bolalarini ma’lum bir vaqtda olib o‘tiradigan joy hisoblanadi. Odatda ota-onalar farzandlarining bilim va qobiliyatini tekshirmaydi. O‘tgan darslar bo‘yicha savol-javob qilmaydi. Natija ma’lum, talab va taklif yo‘q joyda itilish ham bo‘lmaydi. Muallim ham bamaylixotir vaqtini o‘tkazadi. Bularning

hammasi yig‘ilib, xalqning savodxonlik darajasi pasayishiga, bilimsizlik, fikrsizlikning ortishiga olib keladi.

Agar maktabda muallim, universitetda domla o‘z ishiga vijdonan yondashganda edi, hayotimiz butunlay boshqacha bo‘lardi. Yana bir narsaga odatlanib qolganmiz. Masjid, madrasa qurishga borimizni sarflaymiz. Maktab qurishga kelganda yuzimizni ortga buramiz. Axir ertangi kunimiz egalari maktab partasidan chiqadi-ku. Tadbirdor, puldor yurtdoshlarimiz maktab uchun ham qayvisha, buning masvasini bugun bo‘lmasa, ertaga ko‘ramiz.

Barcha illatlarning doyasi ilmsizlik ekan, millatning oyog‘iga tushov bo‘layotgan qusurlardan tezroq qutulishimiz shart. Dabdbali to‘ylar, hashamatli imoratlar, keraksiz orzu havaslar o‘rniga bolalarimizni o‘qitishimiz zarurat ekanini unutishga haqqimiz yo‘q. Hammasini davlatga tashlab qo‘yish, hammasini davlatdan kutish to‘g‘ri emas. Inson tafakkuri, dunyoqarashi, bilim va qobiliyati juda muhimligini anglab yetmas ekanmiz, ahvolimiz o‘nglanmaydi. Ilm-fan va sifatlari ta’limsiz taraqqiyot ham, rivojlanish ham bo‘lmaydi.

Bizningcha, maktablarga vatanparvar, o‘tmishda fidoyilik ko‘rsatgan tajribali pedagoglarni, olimlar, yozuvchi va shoirilar, tanig‘li sportchilar va san’atkorlarni ko‘proq jalb qilish, o‘quvchilarni ularning ibratli hayot yo‘li bilan tanishtirish ham foydali bo‘ladi. Shu o‘rinda, bir misol keltirmoqchiman. **Tanig‘li aka-uka olimlar, akademiklar Saidahror va Saidasror G‘ulomov poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi maktablarga o‘z tashabbuslari bilan qatnab, o‘quvchilar bilan uchrashib, ularni ilm-fanga qiziqtirish uchun bor tajribasi, mahoratini ishga solyapti. Qaniydi, jamiyatimizda shunday fozil insonlar ko‘paysa.**

Nokamtarlik bo‘lsa ham aytaman, kamina mehnat qilayotgan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o‘z yurtiga sadoqat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik va mehr-oqibat hissin rivojlantirish, jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla institutining mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganish maqsadida falsafa fanidan “Mening mahallam — mening faxrim” mavzusida talabalarning mustaqil ishini tashkil qildik. Bundan ko‘zlangan maqsad farzandlarimizni, talaba yoshlarni mahalla hayotiga, uning qadriyatlariga yaqinlashtirish va shu orqali o‘zligini anglashi, vatanparvarlik, elparvarlik e’tiqodini rivojlantirishdir. Nazarimda, bunday amaliyotni maktablarda ham joriy etish kerak. Maktab dargohida olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdek bola miyasida qolib ketadi.

Ish dargohidagi ma’naviy muhit masalasi ham juda muhim. Ayol o‘qituvchilarning bilimi, mahoratini hech kamsitmaganda holda aytamizki, maktablarga erkak o‘qituvchilarni ham jalb etish zarur. Irodali, matonatli, jasur, hamiyatli, or-nomusli farzandlarni tarbiyalashda ularning o‘rni hamisha yuqori bo‘lgan. Maktabda ma’naviy muhitning yomon bo‘lish holati bilan mutlaqo murosa qilib bo‘lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham ko‘p masala va vazifalar qatori mutasaddilarga “maktab — ota-ona — mahalla” janjiri asosida elektron mu-loqot platformasini ishga tushirish topshirildi.

Yoshlar o‘rtasida ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilib, ularning zararli ta’siridan himoyalash va ijobiy tomonidan foydalanish bo‘yicha ota-onalar va o‘quvchilarga sodda tilda qo‘llanmalar yaratish muhimligi qayd etildi. Davlatimiz rahbari shu va shu kabi tashabbuslar amaliyotda yo‘lga qo‘yilsa, ota-onada mas’uliyat, o‘qituvchida majburiyat, o‘quvchida ishonch, ta’lim va tarbiyada sifati, mahallada esa nazorat bo‘lishini ta’kidladi.

Shuningdek, maktablarda og‘riqli masalalardan biri bu — tarbiya va ma’naviyat ekaniga e’tibor qaratildi. O‘tgan yili voyaga yetmaganlar 3,5 mingga jinoyat sodir etgan, shundan 2 280 nafarini maktab o‘quvchilari tashkil qilishi haqidagi raqamlar tahlil qilindi.

Darhaqiqat, ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat maktabdan boshlanadi. Ma’rifatparvar jaded ajdodimiz Abdurauf Fitrat hayot yo‘lida birinchi masala maktab masalasidir, degan edi. Aytmoqchimizki, bugun mamlakatimiz uchun maktab bosh maqsad, birinchi masala va najot qal’asidir. Maktabni o‘zgartirmasdan turib, mamlakatni taraqqiy ettirib bo‘lmaydi. Demak, millat va mamlakat taqdiri maktabda hal bo‘ladi. Shuning uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchi va pedagoglarni maktab ta’limi sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda eng yaqin yordamimizni fikrlashga o‘rgataylik.

Tarixga nazar tashlang, mamlakatlar qachon qudratli bo‘lgan? Qachon taraqqiy etgan? Qachon gullab-yashnagan? Qachon xalq farovon va boy yashagan? Albatta, ilm-fan va ta’lim rivojlanganda. Minglab maktab va madrasalar qurilganda. Shaharlarimiz markazidagi eng baland, eng muhtasham imoratlar madrasalar bo‘lganda. Achchiq bo‘lsa-da, yana bir bor takrorlaymiz, maktabni yangilash kerak. Unga yangi ruh kiritish shart. Bularning hammasi uchun farzandlarimizni fikrlashga o‘rgataylik.

Bugun dunyoda ham ahvol shunday. Ilm-fan va ta’lim rivojlangan davlatlar har tomonlama jahonga hukmronlik qilmoqda. Aslida, qurol-yarog‘dan-da ko‘proq mablag‘larni ilm-fanga yo‘naltirmoqda. Kambag‘al mamlakatlardagi iste’dodli yoshlarni, iqtidorli olimlarni katta pul evaziga o‘zlariga chaqirib olmoqda va ulardan muqaddaslar yo‘lida foydalanmoqda. Ilmiy salohiyatga ega chiqmoqda. Buning natijasida davlatlari ziyoda bo‘lib, xalqi yaxshi yashamoqda.

Maqsadimiz Xalqni Renessansni qurish ekan, inson manfaatlari birlamchi bo‘lgan, iqtisodiy rivojlangan, ijtimoiy mukammal, barqaror jamiyatni barpo etish ekan, poydevori zamondan ilgari qadam tashlaydigan ta’lim va ilm sohiblaridir. Bu haqiqat Prezidentimiz tomonidan ilgari surilmoqda va xalqimiz hayotidan tobora chuqur o‘rin egallamoqda.

Maktab masalasi barcha islohotlarimiz markazida bo‘lmog‘i zarur.

Bugungi kunda dunyodagi eng yirik tog‘-kon sanoati majmuasi sifatida e’tirof etilayotgan 3-mis boyitish fabrikasini barpo etishning yakuniy bosqichiga chiqyapmiz. Loyiha boshlangandan buyon 173,2 million kub metr kon yuzasini ochish ishlari bajarildi, 33,3 kilometr temir yo‘llar yotqizildi.

2024-yil 10-fevral, 30-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Bugunning gapi

TO‘RTTA YIRIK KOMPANIYA:

boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar iqtisodiyotga qanchalik foyda keltiradi?

Keyingi yillarda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”, “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatlari hamda “Navoiyuran” davlat korxonalarini rivojlantirish uchun 7 milliard 400 million dollar investitsiya kiritildi. Buning natijasida oltin ishlab chiqarish hajmi 23 foiz, mis 41 foiz, kumush 60 foizga oshdi. Umuman, o‘tgan 6 yilda ushbu korxonalarning jami sanoatdagi ulushi 10 foizdan 17 foizga, budget tushumlarida esa 11 foizdan 25 foizga oshgan.

qisqartirish, shuningdek, mehnat unumdorligini oshirishni bevosita rahbar va mutaxassislarining samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) bog‘lash bo‘yicha vazifalar qo‘yildi.

Ularining barchasi Olmaliq kon-metallurgiya kombinati faoliyatiga bevosita daxldor. Xususan, 2024-yilda 3-mis boyitish fabrikasini qisqa muddatda ishga tushirish va qo‘shimcha 21,5 ming tonna mis boyitmasini tayyorlash evaziga mis ishlab chiqarishni 170 ming tonnaga yetkazish maqsad qilingan.

Joriy yilda 2,136 milliard dollarlik investitsiyalarni, shu jumladan, 2 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rejalashtirgan edik. Prezidentimiz investitsiyalarni jalb etishni 3 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha qo‘shimcha topshiriq berdi. Buni uddalash uchun salohiyatimiz yetarli. Ana shunday imkoniyatlardan biri bu — Mahalliyashtirish dasturi ijrosini to‘liq amalga oshirish. Joriy yilda ushbu dastur asosida 1,16 milliard, sanoat kooperatsiyasi orqali 1,320 milliard, jami 2,337 milliard so‘mlik mahsulotlar o‘zlashtirilishi maqsad qilingan edi. Lekin belgilangan vazifalardan kelib chiqib, qo‘shimcha ravishda 500 milliard so‘mlik mahsulot o‘zlashtirilishi rejalashtirildi. Uning amalga oshirilishi import o‘mini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada ko‘paytirishga imkoniyat yaratgani holda mahsulot tannarxini tushirishga yordam beradi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida kelgusida kombinat tomonidan umumiy quvvati 55

ming tonna quyma mahsulotlar va tog‘-kon texnikalari uchun ehtiyot qismlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan yangi mashinasozlik zavodi quriladi. Germaniya kompaniyalari bilan hamkorlikda neft, gaz va kimyo sanoati ehtiyotlari uchun kimyoviy chidamkor shisha tolali mahsulotlar tayyorlanadi. Xitoylik hamkorlar bilan tog‘-kon avtosamosvallari uchun ehtiyot qismlar, shuningdek, mis va nodir metallardan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega ishlab chiqarishni kengaytirish choralari ko‘riladi.

2017-yilda “Yoshlik-1” konini o‘zlashtirish loyihasiga kirishilgan edi. Bugungi kunda dunyodagi eng yirik tog‘-kon sanoati majmuasi sifatida e’tirof etilayotgan 3-mis boyitish fabrikasini barpo etishning yakuniy bosqichiga chiqyapmiz. Loyiha boshlangandan buyon 173,2 million kub metr kon yuzasini ochish ishlari bajarildi, 33,3 kilometr temir yo‘llar yotqizildi.

Qurilishni jadallashtirish maqsadida yangi metall konstruksiyalari ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi. “Yoshlik-1” koni, 3-mis boyitish fabrikasi va boshqa qo‘shimcha obyektlarni elektr to‘minoti bilan ta‘minlash uchun zarur choralar ko‘rildi.

“Yoshlik-1” koni hududida joylashgan, quvvati 30 million tonna bo‘lgan dastlabki maydalash va yuklash bo‘linmasining birinchi qismi va kondan fabrikagacha ma‘dani tashishga mo‘ljallangan konveyer liniyasi sinov tartibida ishlatib ko‘rildi. 90 ming tonna quvvatga teng bo‘lgan, konlarni



ochishda asqatadigan portlovchi moddalar zavodi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Yangi O‘zbekistonning yangi kombinati bunyod etilyapti. Shu kunlarda 4-mis boyitish fabrikasini loyihalash ishlari jadal olib borilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar asosida Mis eritish zavodi quvvatlarini 2,7 barobar oshirish bo‘yicha ham loyiha tayyor.

4-mis boyitish fabrikasi hamda Mis eritish zavodining yangi quvvatlari ishga tushishi natijasida 2030-yilga qadar mis ishlab chiqarish hajmi yiliga 500 ming tonnaga, oltin 50 tonnaga va kumush 270 tonnaga, sulfat kislotaga 4,1 million tonnaga yetkaziladi. Bu raqamlar, shubhasiz, O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yirik loyihalarning yana bir e’tiborli jihati ularning “yashil” iqtisodiyotga asoslanganidir. Yangilanayotgan kombinatning ishlab chiqarish jara-yonlariga tabiatga zarar yetkazmaydigan va atmos-

feraga chang, gaz chiqarmaydigan “yashil” texnologiyalarni joriy etish niyatidamiz.

Prezidentimiz ta’kidlagan muhim masalalardan yana biri — transformatsiya jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Ya’ni endilikda yirik metallurgiya kompaniyalarida boshqaruv raisining transformatsiya bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimi joriy qilinadi. Unga bo‘ysunuvchi transformatsiya bo‘yicha loyiha ofisi tashkil etilib, xorijiy tajribaga ega malakali mutaxassislar jalb qilinadi.

Kombinatimizda transformatsiya bo‘yicha sezilarli jarayonlar amalga oshirildi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartiga o‘tildi. “S&P Global Ratings” “B+” (“barqaror”) hamda “Fitch Ratings” “BB-” (“barqaror”) kredit reytinglari berildi.

Boshqaruvga ham bir qator o‘zgartirishlar kiritildi, “Forenzik” auditi o‘tkazildi, xaridlar jarayoni to‘liq raqamlashtirildi. Asosiy mis zanjiri: “Qalmoqgir” koni, Mis boyitish fabrikasi, Mis eritish zavodining biznes jarayonlari tahlil qilindi va operatsion samaradorlikni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Transformatsiya, kredit reytinglari va xalqaro moliyaviy hisobotlar evaziga 1,9 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat kafolatsiz kredit jalb qilindi. Buning evaziga 125 million dollar moliyaviy xarajalar iqtisod qilindi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joiz, “OKMK-2030” raqamli konsepsiyasini amalga oshirish yuzasidan o‘tgan yillar mobaynida kombinatimizda salmoqli ishlar olib borildi. Birinchi navbatda, ishlab

chiqarishda texnologik jarayonlarni boshqarish, transport-logistika tizimlari to‘liq raqamlashtirildi. Hujjatlar aylanmasi, iqtisodiyot-moliya, bux-galteriya sohasi uchun ID va 1 C tizimlari joriy qilindi. 2024-yilda raqamlashtirish yo‘nalishi doirasida 20 dan ziyod loyihalarni yo‘lga qo‘yishni rejalashtirganimiz. Bu ishlar kelgusida ham izchil davom ettiriladi va barcha sohalarda to‘liq raqamlashtiriladi.

Tog‘-kon sanoati, geologiya, metallurgiya sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash ham e’tibordagi masaladir. Bu borada kombinatda xorijiy tajribaga asoslangan mutlaqo yangi tizim yo‘lga qo‘yilmoqda. Kombinatsiyada geologiya, marksheyderlik, konchilik ishi, boyitish, metallurgiya, mexanika, energetika, kon sanoati transportlari, avtomatlashtirish kabi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tinglovchilarni qayta o‘qitishga va kasbga tayyorlashga ixtisoslashgan “Muhandislar maktabi” binosi qisqa muddatlarda foydalanishga topshiriladi.

Bugungi kunda kombinat tarkibiy bo‘linmalariga, barcha ijtimoiy soha obyektlariga quvvati 9 MVt. bo‘lgan quyosh fotoelektr panel-lari o‘rnatilgan. Namangan viloyatining Pop tumanida quvvati 1000 MVt. bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamoamiz taqdimotida belgilangan barcha vazifalarni yakdillik bilan bajarishga kirishdi. Zero, ular ijrosi mamlakatimiz iqtisodiyoti rivoji, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Inson qadri uchun

HAYOT BIR KUN, O‘SHA KUN BUGUN!

Marhamat tumanidagi 48 ta mahalla fuqarolar yig‘inida 185 mingdan ortiq aholi yashaydi. Har bir hudud, har bir oilaning o‘ziga xos yashash tarzi va hayot amallari bor. Keyingi besh yilda aholi kundalik hayot tarzi uchun muhim bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy masalalar yechimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Gapning rosti, avvallari odamlar bilan uchrashish, muloqot qilishdan o‘zimizni olib qochganmiz. Chunki ishsizlik, yo‘l, suv, elektr, gaz ta‘minoti bilan bog‘liq ko‘plab masalalar ularning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lgan edi. Endi bu boradagi ish amallari o‘zgardi.

va imkoniyatlar yaratib berildi. Endi qo‘l qovushtirib o‘tirishga hech kimning haqqi yo‘q.

Marhamat tumanidan Janubiy Farg‘ona kanali oqib o‘tadi. Yarim asrdiki, undan faqat ekin-tikini sug‘orish bilan cheklanganmiz. Muqobil energiyadan foydalanish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar tumanimizda ham bo‘y ko‘rsatmoqda. Bu maqsadlar uchun jami 14,4 million dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirilishi hisobiga “Mingtepa gidroenergiya” MCHJ tomonidan “Oqboosh” MFY 1 MVtli, “Rohat” MFYda 4,5 MVtli, “Polvontosh” MFYda “Zhejiang Jinlun Electromechanic. Ltd” sa’y-harakati bilan 2 MVtli mini GESlar qurilishi jadallik bilan olib borilmoqda. Bu bir paytning o‘zida tumandagi 36 mingdan ortiq xonadonni muqobil energiya bilan ta‘minlash imkoniyatini beradi.

Qirg‘izistonning O‘sh viloyati bilan bog‘lashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Mingtepa bojxona chegara posti uzoq yillik tanaffusdan so‘ng zamonaviy mezonlar asosida faoliyatini boshladi. U orqali bir kunda ikki mingdan ziyod fuqaro, 200 dan ortiq avtotransport vositasi harakatlanadi. Bu

ikki davlat o‘rtasida o‘zaro bordi-keldi, savdo-sotiq, sayohat turizmi uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Qishloqqa sanoatni olib kirish, ishlab chiqarish tarmoqlariga investitsiya jalb etish, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandlik, kichik biznes, tomorqachilikni rivojlantirish orqali ichki va tashqi bozorga xaridorligi mahsulotlar yetkazib berish, yildan-yilga nufusi o‘tib kelayotgan aholiga munosib ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish bugungi kunning muhim amallaridan.

Keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, xizmatlar, qurilish, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlaridagi islohotlar natijasida eksport hajmi to‘rt karra, xorijiy investitsiya jalb etish sakkiz barobar ko‘paydi. Ayni kunda Ipak va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi bilan “Sunshine partners LLC” o‘zbek-yapon qo‘shma korxonasi va Ispaniyaning “SILKTRACO” kompaniyasi hamkorligida 18 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha ish olib borilmoqda. 2024-yil yakuniga qadar bu yo‘nalishda 68,5 million dollarlik xorijiy investitsiya jalb qilinadi. Natijada sanoat tarmog‘idagi o‘sish sur‘ati ellik



foizga yetadi, 1 trillion 106 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Past quvvatda ishlayotgan 15 ta sanoat korxonasi faoliyatini sog‘lomlashtirish choralari ko‘rilib, quvvatlarini oshirish maqsadida 82 milliard so‘mlik 11 ta loyiha ishga tushirildi. Bu to‘g‘imchilik, tog‘-kon, oziq-ovqat, kiyim-kechak, elektr jihozlari, mashinasozlik va ehtiyot qismlar, qurilish materiallari va mebelchilik yo‘nalishlarida 40,6 million dollarlik eksportni amalga oshirish orqali 8,9 million dollar importni qisqartirish imkonini beradi.

Bugungi kunning muhim masalaridan biri — ishsizlikni qisqartirish. O‘tgan yil boshida ishsizlar 7 ming nafar, ishsizlik darajasi esa 9 foizni tashkil etgan edi. Yil sarhisobiga ko‘ra,

30 ming 232 kishi doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarga band qilindi. Shunday ekan, nega yoshlarnimiz o‘zga yurtlarga borib ishlash kerak?

“Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida “Ipak ko‘chat klaster” fermer xo‘jaligi 30 gektar maydonda serhosil tut ko‘chatlari yetishtirish bilan shug‘ullanib keladi. Fermer xo‘jaligi tomonidan 2024-2029-yillar davomida Qozog‘istonning “Kazak jibeki” uyushmasiga qiyomat 31,2 million dollarlik 80 million tut tut ko‘chati yetkazib beriladi. Joriy yilda 2,5 million dollarlik 6,5 million tut ko‘chati eksport qilinadi. Bundan tashqari, Gruziya, Ozarbayjon, Tajikistonga ham 10 million tut tut ko‘chati yetkazib berish bo‘yicha muzokaralar o‘tkazilmoqda. Tut plantatsiyasi, pilla yetishtirish, sun‘iy ozuqa va ipak momig‘i ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi va qurxonalar tashkil etiladi. Loyiha 3 bosqichda amalga oshiriladi. Loyiha 225 tonna pilla xomashyosi yetishtirilib, 75 tonna xom ipak ishlab chiqariladi, 5,4 million dollarlik mahsulotni eksport qilish imkoni yaratiladi hamda 150 ta doimiy va 811 ta mavsumiy ish o‘rni ochiladi.

Keyingi yillarda masofaviy logistika xizmatlari ko‘rsatuvchi markazlar faoliyati kengayib bormoqda. Bu yerda ishlayotgan 200 nafarga yaqin yosh 5000 dollargacha maosh olayapti. Buning hisobiga mazkur tarmoqlarda ishlab istagida ingliz tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan yoshlar soni keskin oshib ketgani bois, Kanada, Shvetsiya hamda AQSHdan malakali o‘qituvchilar jalb etildi. Birgina ingliz tilini o‘rgatuvchi o‘quv markazlari soni 15 taga yetdi, ingliz tilini o‘rganuvchi o‘quvchilar soni 15 mingdan oshdi. 2020-yilda tumandagi 48 ta MFYdagi ingliz tili o‘rganuvchi yoshlarimiz 4-5 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda har bir hududda 40-50 nafardan ortiq

yosh til o‘rganmoqda. Buning natijasida 780 nafar yigit-qiz IELTS sertifikatini oldi. Hozirgi kunda yoshlarni ish bilan ta‘minlash maqsadida umumiy qiymati 8,7 million dollarlik 2 ta logistika markazini tashkil etish orqali 680 ta ischi o‘rni yaratiladi. Buning hisobiga yiliga 7 million dollarlik xizmat eksporti amalga oshiriladi. Logistika markazlarida robototexnika va dasturlash bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash akademiyasi tashkil etiladi.

Marhamat tumanida 2 million tonna bazalt xomashyosi mavjud. Bu xomashyolardan hozirga qadar foydalanmay kelingan. Endi mahalliy tashabbuskor “Javohir avto invest” hamda Rossiyaning Nijegorod shahridagi “DrobMash” korxonasi bilan umumiy qiymati 20,4 million dollarlik loyiha asosida bazalt toshdan yiliga 45 ming tonna armatura va bazalt plitla ishlab chiqarish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Loyiha amalga oshirilishi natijasida 110 milliard so‘mluk qo‘shimcha sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi, 30 ta ish o‘rni yaratiladi.

Tumanda intensiv bog‘lar, nasli chorva, parandachilik, aholi tomorqasidan unumli foydalanish, issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirishda o‘ziga xos islohotlar amalga oshirilyapti, yangi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanayapti. Tosh ustida qul undirib, elga rizq-nasiba ulashayotgan sohibkorlar ko‘p.

“Mirishtkor” mahalla fuqarolar yig‘inida “Asr umidi” MCHJ tomonidan 7,5 gektar maydonda 2,2 million dollarlik Agrolgistika markazi tashkil etilishi hisobiga 250 ta doimiy hamda kooperatsiya asosida 2200 ta ish o‘rni ochiladi. 16 ta mahalla fuqarolar yig‘ini uzumchilikka ixtisoslashtirilgan bo‘lib, 12 mingga yaqin xonadon uzumchilik bilan shug‘ulanib keladi. Ayni kunda “Har bir kun — imkoniyat, har bir kun — kelajak uchun poydevor” g‘oyasi asosida aholi xonadonlarida bahorgi ekin-tikin ishlariga e’tibor qaratilmoqda.

Aholi turmush tarzi uchun muhim bo‘lgan yo‘l, suv tarmoqlari toshid borasidagi ishlar hajmi ham keskin oshdi. Tor, o‘nqir-cho‘nqir, qishda loy, yozda chang ko‘chalar o‘rinda tekis va ravon yo‘llar qurildi. Asrlar davomida suv yetib bormagan mahalla va xonadonlar suv bilan ta‘minlandi. Shu kunga qadar 96,2 kilometr ichimlik suvi tarmog‘i tortildi, 17 ta suv qudug‘i ta‘mirlanishi hisobiga toza ichimlik suvi bilan qamrov 84,6 foizga yetdi. Barcha manbalar hisobidan umumfoydalanuvdagi 15,5 kilometr hamda 154,8 kilometr ichki yo‘l asfaltlandi, 17,5 kilometrda shag‘al yotqizildi.

Bu raqamlar, amalga oshirilgan ibratli ishlarni bejiz sanab o‘rganim yo‘q. Islohotlarning ijrochilari, tashabbuskorlari ham marhamadliklar. Ular ko‘pga ibrat, namuna bo‘lib mehnat qilayapti, izlaynapti.

Aslida, shuning o‘zi katta jasorat, vatanparvarlik namunasidir. Chunki vatanparvarlik ko‘chada bayroq ko‘tarib yurish, degani emas. Hamma o‘z yurtini sevs, kimdadir yuk bo‘lib emas, balki yaratib berilgan imkoniyat va imtiyozlardan foydalanib, o‘qib-o‘rganib, izlanishdan to‘xtamasligimiz, fidoyilik bilan mehnat qilishimiz ham haqiqiy vatanparvarlik namoyishi emasmi?!



Boburjon YO‘LDOSHEV,
Marhamat tumani hokimi

To‘rt yil avval tuman hokimi bo‘lib ish boshlagan ilk kunlarimda hokimlik faoliyatidan norozilar ko‘pchilikni tashkil etgan. Aholi bilan muloqot qilish, mavjud muammolar yechimida “mahallabay”, “xonadonbay” ishlash tizimida olib borilgan amaliy ishlar jarayonida ko‘plab masalalarga yechim topildi. Bu bilan barcha muammolar bartaraf etildi, degan fikrdan yiroqman. Hayot bor ekan, uning o‘ziga yarasha katta-kichik kamchiliklari bo‘ladi.

Donishmandlar aytadi: “Hayot bir kun, o‘sha kun bugun!”. Bir qarashda, oddiy talqin. Ammo uning zamirida har bir soniya qanchalik g‘animatligi, tinchlik, xotirjamlikni qadrlashning mohiyati mujassam ekanini anglab olish qiyin emas.

Kechqurun uyquga yotsak, tongda uyg‘o-nishimizga hech kim kafli bo‘lmaydi. Hech kimga sen shuncha yil yashaysan, bemalol yuraver degan kafolat berilmagan. Ko‘plab davlatlarda urush alangalanmoqda, vayronalar ostida qolayotgan shahar va qishloqlar, bir burda non va suvga zor bo‘lganlar qismatidan xulosa chiqarishimiz kerak.

Shunday ekan, nega xotirjam bo‘lishimiz kerak? Nega mavjud imkoniyat va imtiyozlardan samarali foydalana olmayapmiz? O‘tgan yillarda oilangiz, turmushingizda nima o‘zgardi? O‘zgarishlar bo‘lmaganiga kim aybdor? Nega hayotimizni o‘zgartirishga harakat qilmayapmiz? Nega tomoshabin bo‘lishimiz kerak, degan xaqi savollar o‘rtaga chiqmoqda. Tinch, emin-erkin zamonda faqat talab qilib yashashimiz kerakmi? O‘zimizning otalik, onalik, farzandlik, fuqarolik burchimizni unutmashligimiz kerak emasmi?!

Har qanday mamlakatda ham ishlamagan, mehnat qilmagan odam non topolmaydi. Zamonaviy va ko‘rkam binolar, dam olish maskanlari, to‘kin-sochinlik, qulay shart-sharoitlar mehnat va izlanishlar mahsuli. Demogochi bo‘lganim, yurtimizda halol mehnat qilib, daromadli bo‘lish yo‘lida barcha sharoit



Sheroz Qoraboyev olgan suratlari.

USHBU QR-KOD ORQALI VIDEOGA O‘TING.





Oramizdagi odamlar

Ahmadali ASQAROV: ARXEOLOGIK OBYEKT LARNI BEZAVOL SAQLASH VA MUZEYGA AY LANTIRISH VAZIFASI QO‘YILGAN, AMMO NECHUN SUSTKASHLIK?..

Tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Ahmadali Asqarovni nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham yaxshi bilishadi. Bir kam to‘qsonni qoralagan bu insonning umri arxeologik ekspeditsiyalarda o‘tdi. Hozirgacha yangi obyektlarni ochishda qatnashadi. Asosiy faoliyati Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan moddiy-madaniyat yodgorliklarini ochish va ularda arxeologik tadqiqotlar o‘tkazish yo‘li bilan O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan. 20 dan ortiq monografiya, 600 dan ziyod ilmiy maqola, 1 ta darslik va 8 ta o‘quv-metodik qo‘llanma muallifi. Ilmiy ishlarining ko‘pi dunyoning turli davlatlarida chop etilgan.

Olim bilan suhbatlashish uchun xonadoniga borganimizda ham kitob mutolaasi ustida uchradik. Ko‘rinishidan ancha tetik, basavlat bu odam kitobni ko‘zoynaksiz o‘qiyotgan edi. Ayoli atrofni tartibga solish bilan mashg‘ul. Onaxonning harakatlari ham chaqqongina. Kirishdan ularga havas qildik: bizni ham shu yoshlarga yetkazsin!

Men va fotomuxbimi samimiy qarshi olarkan, qahramonimiz qo‘lidagi kitobga ishora qilib, tarixiy roman ekani, yaqinda chop etilgani, muallif ularga ilk o‘quvchilardan biri sifatida sovg‘a qilib, fikr bildirishini so‘raganini aytdi. Asar bu insonga juda ma‘qul kelibdi, tarbiyaviy ahamiyati katta ekanini ta‘kidladi. Kitob mazmuni haqida ham mulohaza bildirdi. Shundan so‘ng suhbatga kirishdik. Ahmadali akaning o‘zi aytganidek, eslab qolish qobiliyati o‘ta yaxshi ekan. Nutqi ham ravon bo‘lgani uchun tinglash juda maroqli bo‘ldi. Aslida, arxeologlarning faoliyati doim ham shunday qiziq bo‘lsa kerak. Arxivning o‘zginasi bo‘lgan bu odam bilan gaplashib, o‘tgan asrning mustaqillikka bo‘lgan davri haqida ham qiziqarli ma‘lumotlar oldik. Har bir hikoyasini jon qulog‘imiz bilan tingladik. Hikoya deb atayotganimiz, aslida, bir insonning butun umri, boshdan kechirganlari, salkam 90 yillik tarix.

Taqdir hazili yoki...

...Bolaligim qishloqda — Namangan viloyati Norin tumanida o‘tgan. Oilamizda 14 farzand dunyoga kelgan, nobud bo‘lganlaridan qolganimiz 8 nafar edik. Onam rahmatli ko‘p bolali ayol sifatida qahramon bo‘lgan. Otam oddiy mirishkor dehqon edi. Halol mehnat ortidan 5 o‘g‘il, 3 qizni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Men boshqalardan farq qilardim. Qo‘lmdan kitob tushmas, xotiram nihoyatda yaxshi bo‘lgan. Doim otamning yonida yurib, ko‘makdosh bo‘lardim. Shundanmi, menga mehri bo‘lakcha edi. Otamning yo‘lidan ketsam, dehqon bo‘lishim kerak edi. Ammo maktabni tamomlagach, o‘qish niyatim borligi, ilm olishga mehrim baland ekani, oilamizdan ham o‘qimishli inson chiqishi mumkinligini aytdim. Shunda otam “Aka-ukalaringsa nisbatan menga bo‘lgan mehring, qo‘lmdan ishini olishga urinishing yoqadi, bolam, sen ketsang, qanotimdan ayrilib qolaman. O‘qiganlarning hammasi ham olim bo‘lavermaydi, dehqon bo‘lsang ham, elga xizmat qilasan”, dedi. Butun vujudim bilan o‘qishga intilishim borligini aytib, otamni ko‘ndirdim. Endi Toshkentga borib o‘qish uchun pul topish kerak edi. Kolxozdan yordam so‘radik, imkoni yo‘q, deyishdi.

O‘shanda 50-yillarning boshi edi. Qishlog‘imizda bir quruvchi bo‘lardi. Shu odam o‘qishga ketishim uchun pul kerakligini bildirdi. Bir kuni menga yarim gektar sholizorni o‘t-o‘landan tozalash evaziga pul taklif qilib, kuniga 10 rubldan to‘lashini aytdi. O‘sha davrda bu katta pul edi. Men rozi bo‘ldim va ishini 10 kunda bitirish evaziga 100 rubl to‘lashiga kelishdik. Mehnatdan qochmaydigan, har qanday ishini tez bajarishga odatlangan yigitman. Sholipoyada tong saharan yarim kechgacha tinmay ishladim, otam rahmatli menga ovqat tashirdi. Shu zayl belgilangan maydonni 3 kunda o‘tab qo‘yibman. Kelishilgan pulni oldim-da, yarmini ota-onamga qoldirib, qolgani bilan Toshkentga yo‘l oldim.

Sharqshunos bo‘lish maqsadida hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetiga hujjat topshirdim. Yettita fandan imtihon topshirildiki. Shundan oltitasidan a‘lo baho oldim, ammo




rus tilini bilmasligim pand berdi. Xotiram kuchli bo‘lgani uchun rus tilidan bayon yozish imtihonini yaxshi topshirdim, lekin og‘zakidan o‘ta olmadim. O‘qishga qabul qilmaganimdan xafa bo‘lib ketayotib, o‘sha kuni davlat imtihonlari bo‘yicha mas‘ul sarkotibni uchratib qoldim. U Shayxontohur tumanida yangi yuridik institut ochilgani, unga meni qabul qilishlari mumkinligini aytdi. Qishloqqa qaytishga orim yo‘l bermadi va o‘sha o‘qishga borib, qabul qilindim. Bir oy o‘qiganimizdan keyin talabalarni paxtaga jo‘natadigan bo‘ldi. Men qishlog‘imga bordim. Ota-onamga yuridik institutga kirganimni aytdim. Shunda onam bu nima ekanini so‘radi. Men sodda esa u yerda sudya, prokuror bo‘lib chiqishimni, odamlarni sud qilishimni aytdim. Buni eshitgan onam vahima va yig‘iga tushdi: “Sen endi odamlarni sud qilib, jinoyatchiga chiqaradigan bo‘lasanmi”, dedi. Gap shundaki, o‘sha paytda otamning kenja ukasi moliyachi bo‘lgani uchun yaqinlarining gapiga kirib, 1947-yilda pul almashtirishda noqonuniy ishga qo‘l urgani ortidan 12 yilga qamalib ketgan edi. Amakim bizning uyda tarbiyalangani bois, bu holat onamga qattiq ta‘sir qilgan. Shuning uchun mening yurist bo‘lishimga qarshilik qildi va o‘qimaysan, deb turib oldi. Onamning gapini ikki qila olmadim — o‘qishga qaytib bormadim. Bir yil qishloqda qolib ketdim.

Salkam 70 yildan buyon birga, yonma-yon

Har ne bo‘lsa yaxshilikka, deb bejiz aytishmaydi. Onaning so‘zini yerda qoldirmagan Ahmadali kelasi yili yana Toshkentga kelib, Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga hujjat topshirdi va tarix fakultetiga o‘qishga kirdi. 1957-yilda o‘qishni a‘lo baholar bilan tamamladi. Talabalik yillarida bilimga chanqoq, aqlli bu yigit ustozlarining e‘tiboriga tushgandi. Fanlar akademiyasining o‘sha vaqtadgi prezidenti Habib Abdullayev har yili Moskvaga borib, o‘zbek yigit-qizlarining markaziy shaharlarda aspiranturada o‘qishi uchun 150-200 tagacha o‘rin olib kelardi. Yo‘llanmani qo‘lga kiritganlar orasida Ahmadali Asqarov ham bor edi. Uni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida arxeologiya fanidan o‘qitgan ustози Yahyo G‘ulomov tavsiya qildi. Ahmadali yo‘llanmani oladi, ammo aspiranturaga kirmasdan, qishloqqa — ota-onasining oldiga qaytadi.

— Qishloqqa borib, maktabda bolalarga tarix fanidan dars bera boshladim, — deydi A.Asqarov. — Orada to‘yim bo‘ladigan bo‘ldi. O‘zim 21 yosh, tanlagan qizim 17 yosh edi. Qonunchilikka ko‘ra, voyaga yetmagan qizga uylanish taqiqlangan ekan, biz bundan bexabar to‘yni boshlab yubordik. To‘y kuni tegishli tashkilotlar kelib, marosimni to‘xtatdi, o‘zimni qamoqqa olmoqchi bo‘lishdi. Lekin hamma mening o‘ta mehnatkashligim, kuniga 300-350 kilogacha paxta terishimni bilardi. Talabalik davrimda ham, maktabda ishlab yurganimda ham ilg‘or terimchilar qatorida bo‘lganman. Qamalmaslik uchun o‘zimni terimga chiqarishlarini so‘radim. Shunda eng orqada qolgan brigadadan 7 gektar yer berishdi. Alamimdan tinimsiz paxta terardim. Dalada bir xona ajratilgan, o‘sha yerda yotardim. Bir oyda qo‘llarim qavarib, panjalarim shishib ketdi. Mening paxta terishim butun respublikaga yoyildi, har tomondan jurnalistlar keldi. Men haqimdagi maqolalarni o‘qigan Namangan viloyati rahbari oliy ma‘lumotli ekanimni ko‘rib, paxta maydoniga keldi. Men bilan suhbatlashib, to‘y o‘tkazishga ruxsat qog‘ozi tayyorlab berdi. Shunday qilib, 14-noyabr kuni to‘yimiz bo‘ldi. Salkam 70 yildan buyon ko‘z ochib ko‘rgan ayolim bilan ahil-inoq yashab kelyapmiz. 4 o‘g‘il, 1 qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdik. Hammasi o‘zi tanlagan kasbdan ketdi va bunga aslo qarshilik qilmadik. Bir etak nabira, evaralarimiz bor, Allohga shukr.

Ahmadali akaning turnush o‘rtog‘i Muborak aya 84 yoshda, kasbi tarix o‘qituvchisi. To‘rtinchi farzandni dunyoga keltirgandan keyin tarix yo‘nalishida tahsil olgan ekan. Bir muddat Samarqanddagi arxeologiya institutida, keyin 10 yil maktabda tarix fanidan dars bergan. Toshkentga ko‘chib kelganlaridan keyin ham ikki yil ishlab, so‘ng nafaqaga chiqqan.



O‘z farzandlaridek qabul qildi

Xo‘sh, Ahmadali akaning arxeolog sifatidagi faoliyati qachon boshlangan? U aspiranturada o‘qidimi, yo‘q? Bu savollar gazetxonalarimiz kabi meni ham qiziqtirardi. Qahramonimiz esa shoshmadsan davom etdi.

— Maktabda o‘qituvchi bo‘lib yurganimda meni Norin tumani partiya tashkilotining birinchi kotibi chaqirib, raykomning targ‘ibot bo‘limida ishga taklif qildi. Buning uchun Toshkentga bir oylik kursaga yuborishdi, — deydi A.Asqarov. — Borsam, bari institutda menga dars bergan domlalar. Bir oy o‘sha yerda o‘qidim. Bir kuni zerikib, darsdan keyin shahar aylanish uchun 10-tramvayga chiqdim. Qarasam, akademik Yahyo G‘ulomov ham o‘tiribdi. O‘sha vaqtda Fanlar akademiyasida tarix va arxeologiya instituti direktori ekan. Meni ko‘rish bilan bu yerda nima qilib yurganim, meni izlashgani, aspiranturaga o‘qishga borishim kerakligini aytdi. Men targ‘ibotchi bo‘lmoqchi ekanimni aytganimni bilaman, jahl bilan qo‘lmdan sudrab tushib, to‘g‘ri institutga olib bordi. Hujjatlarimni topshirib, imtihonlardan o‘tdim va aspiranturaga qabul qilindim. Bu orada Norin tumani harbiy bo‘limi meni harbiy xizmatga olib ketmoqchi bo‘ldi, ammo viloyat harbiy komissariati yo‘llanmani ko‘rib, meni xizmatdan ozod etdi.

Shunday qilib, aspiranturada o‘qish uchun Leningradga yo‘l oldik. U yerda biz aspirantlarni ilmiy rahbarlarga birliktirishdi. Menga Mixail Gryaznov degan arxeolog olim ilmiy rahbar bo‘ldi. Domla o‘sha kunioyq uyiga olib ketdi. Ayoli bilan yasharkan, ikkisi ham mashhur arxeolog, ilgma berilgan odamlar. Qo‘lida 20 dan ortiq shogird bo‘lsa-da, o‘ta trishshoqliqim va ilgma chanqoqligimni sezib, faqat meni yonida olib yurardi. Kamtarlikmi yo yo‘qchilikmi, ishqilib 40 tacha oila bir darvozadan kirib-chiqadigan uyda yashashadi. Er-xotin arxeologlarga bittagina xona berilgan,



uning ham ichi to‘la kitob. Yolg‘iz farzandlari bo‘lib, u ham joy yo‘qligidan Qozog‘istonda yasharkan. Shu kichkinagina xonaning kitob javonlari orasidan bir burchagini menga ajratishdi, o‘z farzandlaridek qabul qilishdi. Ular menga ham rus tili, ham arxeologiyani o‘rgatdi. Barcha ekspeditsiyalariga olib borardi. Er-xotin o‘ziga alohida, menga alohida palatka tikardi. Ilmiy ishim mavzusi Buxoro vohasi bilan bog‘liq bo‘lgani uchun bu yerdagi ekspeditsiyalarimga ham kelishardi. Ana shu insonlardan arxeologiya sirlarini o‘rgandim.

1962-yili Krasnoyarsk GES qurilishi munosabati bilan arxeologik ekspeditsiya tashkil etildi. Unga domlam Mixail Petrovich bosh bo‘ldi va Markaziy Osiyo bo‘yicha bitta meni o‘zi bilan olib ketdi. Vazifamiz GES qurilishidan oldin hududni o‘rganib, maydonni bo‘shatib berish edi. U vaqtda har qanday qurilish arxeolog ruxsati bilangina boshlanishi shart bo‘lgan. Bitta obyektini men o‘rganadigan bo‘ldim. Qo‘lmda 40 dan ortiq kishi ishlaydi. Obyektida turkiyzabon ajdodlarimizning Andranov madaniyatiga tegishli qabrlari bor ekan. Qabrlardan biri balandroq va ustidagi plita toshlari butunligidan uning qabila sardori qabri ekanini bildim. Qizig‘i, bu qabr o‘g‘rilanmagan edi. Gap shundaki, o‘sha vaqtlarda qabr o‘g‘rilari bo‘lgan va kamdan-kam qabr butunligicha saqlangan. Sardorning qabri bus-butun edi. Shov-shuv bo‘lmasligi, o‘g‘rilar ko‘paymasligi uchun qabrni himoyalab, tegishli tashkilotga xabar berdim. Ular 4 kun deganda yetib keldi va obyektini ochdik. Salkam 5 kvadrat metr maydon o‘rtasida erkak kishi qabri, uning atrofi to‘la qimmatbaho boyliklar edi. Qabr bundan 3,5 ming yil oldin qazilgan va qabila sardori unga butun boyliklari bilan ko‘milgan. Qabrdan chiqqan barcha narsalarni ikki kunda yig‘ib oldik va ular 4 quti bo‘ldi. Xomashyo sifatida rasmiylashtirilib, qoidaga ko‘ra, belgilangan summaning 20 foizi menga berildi. Bu o‘sha vaqtda 5 ming rubl edi.

Dunyo tan olgan topilma

O‘qishdan qaytgach, Ahmadali Asqarov turli lavozimlarda ishladi, ko‘pchilikning e‘tiboriga tushdi. 1970-yili Samarqandda arxeologiya instituti tashkil etiladigan bo‘ldi. Institut ochilishiga ruxsat olish uchun Ahmadali 6 oy Moskvada yurib, o‘nlab ekspertlar roziligini oladi. O‘sha paytda sobiq ittifoq bo‘yicha atigi ikkita Arxeologiya instituti bo‘lgan, borsam, bari institutda menga dars bergan domlalar. Bir oy o‘sha yerda o‘qidim. Bir kuni zerikib, darsdan keyin shahar aylanish uchun 10-tramvayga chiqdim. Qarasam, akademik Yahyo G‘ulomov ham o‘tiribdi. O‘sha vaqtda Fanlar akademiyasida tarix va arxeologiya instituti direktori ekan. Meni ko‘rish bilan bu yerda nima qilib yurganim, meni izlashgani, aspiranturaga o‘qishga borishim kerakligini aytdi. Men targ‘ibotchi bo‘lmoqchi ekanimni aytganimni bilaman, jahl bilan qo‘lmdan sudrab tushib, to‘g‘ri institutga olib bordi. Hujjatlarimni topshirib, imtihonlardan o‘tdim va aspiranturaga qabul qilindim. Bu orada Norin tumani harbiy bo‘limi meni harbiy xizmatga olib ketmoqchi bo‘ldi, ammo viloyat harbiy komissariati yo‘llanmani ko‘rib, meni xizmatdan ozod etdi.

Shunday qilib, aspiranturada o‘qish uchun Leningradga yo‘l oldik. U yerda biz aspirantlarni ilmiy rahbarlarga birliktirishdi. Menga Mixail Gryaznov degan arxeolog olim ilmiy rahbar bo‘ldi. Domla o‘sha kunioyq uyiga olib ketdi. Ayoli bilan yasharkan, ikkisi ham mashhur arxeolog, ilgma berilgan odamlar. Qo‘lida 20 dan ortiq shogird bo‘lsa-da, o‘ta trishshoqliqim va ilgma chanqoqligimni sezib, faqat meni yonida olib yurardi. Kamtarlikmi yo yo‘qchilikmi, ishqilib 40 tacha oila bir darvozadan kirib-chiqadigan uyda yashashadi. Er-xotin arxeologlarga bittagina xona berilgan,

Qabrlardan chiqqan mato, uskunalariga qarab o‘sha odamning dehqon, duradgor, to‘quvchi, zargar, temirchi, doya yoki boshqa kasb egasi ekanini bilish mumkin. Boylar esa butun bisoti, eng kenja ayoli, kanizagi va boyliklari bilan qo‘shib ko‘milgan. Bularning bari haqiqiy etnografiya. Faoliyatim davomida 10 mingdan ortiq shunday qabrlarni ochganman.

Ana shu kashfiyot Samarqandda arxeologiya instituti ochilishiga sabab bo‘ldi. Ahmadali Asqarov esa unga 1987-yilga qadar direktorlik qildi. Keyin respublika rahbariyati Toshkentga chaqirib, Fanlar akademiyasi prezidiumi a‘zoli va gumanitar fanlar bo‘limini boshqarishni topshirdi. Ustoz esa arxeologik faoliyatini yanada faol davom ettirdi.

Olimning eng katta ishlaridan biri Surxondaryodagi Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan 100 gektarlik qadimiy shahar va bronza davriga oid ibodatxona xarobalaridir. Bu O‘zbekiston zaminida topilgan zardushtiylik diniga oid birinchi ibodatxona edi.

— Qadimiy shaharchaning bir gektardan ortiq maydonida monumental ibodatxonani ochdik, — deydi olim. — U yerda Zardushtiylikka oid



olovga, tuproqqa, suvga sig‘inishning hammasi moddiy materiallarda o‘z aksini topgandi. Unga qadar jahonda zardushtiylik bundan 2,5 ming yil oldin ilk temir davrida paydo bo‘lgan deb hisoblanardi. Men esa topilmalarim bilan zardushtiylikning ancha avval — bronza davrida yurtimiz hududida paydo bo‘lganini isbotlab berdim. Buni dunyo olimlari tan oldi va UNESCO Avesto yubileyini yurtimizda o‘tkazish huquqini berdi. Bunga qarshi chiqqan mamlakatlar ham bo‘ldi. Men o‘sha davlatlarga ham borib, dunyo olimlariga ilmiy asoslab berdim.

Arxeologik obyektlarni muzeylarga aylantirish nega kechikyapti?

Umrini ilm-fanga, uning biror sohasiga fido qilgan inson o‘sha sohaning rivoji uchun ham qayg‘urishi tabiiy. Ayni paytda taniqli arxeologni o‘ylantirayotgan, tashvishga solayotgan masalalar bor. Bu yurtimizdagi arxeologik obyektlarni saqlab qolish va ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirib, kelajak avlodlarga yetkazish bilan bog‘liq. Bu borada davlatimiz rahbarining topshiriqlari, tegishli qarorlari ham qabul qilingan. Ammo ish cho‘zilayotgani olimni o‘ylantirmoqda.

— Avvalgi davrlarda ko‘plab arxeologik tadqiqotlar olib borilgan, mablag‘lar ajratilgan, lekin topilmalar faqat muzeylargagina qo‘yilgan, alohida holda turistik obyekt

sifatida saqlanmagan, — deydi A.Asqarov. — Mustaqillik yillarining boshida ham bu narsaga deyarli e‘tibor berilmadi. Masalan, men Arxeologiya institutiga direktor etib saylangan davrimda O‘zbekistonda 15 mingta arxeologik obyekt bor edi, hozir 4,5 mingta qolibdi. Ko‘pi buzilib ketgan, yer maydonlari o‘zlashtirib yuborilgan, o‘rniga imoratlar qurilgan. Obyektlar atrofidagi himoya zonalarida ham odamlar o‘zboshimchalik bilan qurilishlar qilib tashlagan. Toshkent shahri hududida 50 ta Oqtepa bo‘lgan, hozir shundan 4-5 tasi qolgan, xolos. Shoshtepa obyektini ham abgor ahvolda. Ulardan topilgan me‘moriy qurilmalar yo‘q bo‘lib ketyapti. Ana shularni saqlab qolish, Prezidentimiz topshirig‘i bilan aytilgan muzeylarni tashkil etish kerak. Davlatimiz rahbari bu masalaga juda katta e‘tibor qaratmoqda, olimlarni to‘plab, obyektlarni muzeyga aylantirish vazifasini qo‘ymoqda, topilmalar yo‘q bo‘lib ketmasin, saqlaylik, depayti. Lekin amalda ayrim mas‘ullar sustkashlik qilayotgani kishini hayron qoldiradi.

Madaniy meros agentligi tomonidan 18 ta arxeologik obyektini muzeyga aylantirish belgilanganiga 3 yildan oshyapti. Lekin birotasi haligacha muzeyga aylantirilmadi. Ana shu obyektlardan birinchisi qadimgi Axsikent shahri va Norin tumanidagi Uchtepa qishlog‘idan topilgan qadimgi Haylam shahri zardushtiylik ibodatxonasidir. Uchtepa qishlog‘ining o‘rnida qadimda Haylam shahri bo‘lgan. Haylam ikki daryo — Qoradaryo va Norindaryo o‘rtasidagi hozirgi Norin, Uchqo‘rg‘on, Uychi, Namangan tumanlari hamda Andjonning Izboskan tumani hududida joylashgan muzofotning poytaxti hisoblangan. Shu yerdagi zardushtiylik ibodatxonasidan naq 70 ta otashkada topildi. Bunaqa ko‘lamdagisi dunyo miqyosida ham hali-hamon yo‘q. Ha, qo‘lga kirigan manbalarimizning ilmiy qimmat va ahamiyati beqiyos.

Ana shu obyektini muzeyga aylantirish ishlari boshlangan, lekin ayrim sabablarga ko‘ra, haligacha oxiriga yetmayapti. Ibadatxona qoldiqlari Namangan viloyat hokimligi tomonidan ajratilgan mablag‘ hisobidan yengil konstruksiyalar bilan o‘ralib, usti yopildi. Norin tumani hokimligi hududda yer tekislash va devor olish ishlarini amalga oshirdi. Endi bu yerda bir



maromdagi haroratni ta‘minlab beradigan muhit yaratish zarur. Buning uchun majmua qishin-yozin 22 daraja harorat bilan ta‘minlaydigan maxsus qoplamalar talab etiladi. Bu ishlarga pul ajratilyapti, lekin joyiga yetib bormayapti. Arxeolog sifatida shularni o‘ylab qayg‘uraman. Har bir tepalik tagi xazina, ularda juda katta tarix yotibdi. O‘zbekistonda hozirning o‘zida 100 dan ortiq shunday obyektlar bor, ularning ro‘yxatini berganman. Agar shularni muzeyga aylantirsak, sayyohlar oqimi ham keskin ortadi. Asosiysi, arxeologik obyektlarni saqlab qolishimiz, kelajak avlodga yetkazishimiz kerak.

Ahmadali aka hozir ham arxeologik ekspeditsiyalar olib bormoqda. Obyektlarning turi Toshkent viloyati Ohangoran tumanidagi Suyurlitepa bo‘lsa, ikkinchisi Olmalik shahridan 12 kilometr shimoli-sharqda joylashgan Tunkat yodgorligidir. Ularda ham so‘nggi antik davridan to somoniyalar va qoraxoniylar davriga oid qadimiy yodgorliklar topilgan. Tadqiqot ishlari esa davom etmoqda.

Domlarning aytar gaplari ko‘p. Lekin u kishini ko‘p urintirib qo‘ymaslik uchun yurtimiz tarixi, qadimiy obidalari, umuman, madaniyatimizning eng qadimgi namunalarini izlab topish, ilmiy istifodaga kiritish va jahon miqyosida targ‘ib etish ishlarida hamon tolmay mehnat qilayotgan olimga salomatlik tilab, xayrlashdik.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Mulohaza

O'ZLIK IMORATI MUSTAHKAM BO'LSIN!

Odam o'zini jamlasa, bir qo'shin bo'ladi, degan gap bor. Bunda tafakkur erkinligining o'zagi bo'lmish aql-idrok ustuvorligi va mulohaza-mushohada ko'lami barqarorligi, oshkoraligini ta'minlash, fikrlash tarzini muayyan darajada mukammallashtirish muhimdir. Shundagina fikrlayotgan odam — yashayotgan odam muqobili parallel chiziqlarda uyg'unlashadi. Dunyoda tajovuzkorlik dovuli kuchayotgan, milliy totuvlikka raxna solayotgan yovuz kuchlar ko'lankasi izg'iyotgan jarayonda hushyorlik va ogohlik har bir kishi uchun havodan nafas olish bilan teng ekanini anglamoq lozim.



O'ro'z HAYDAR, shoir

Har kuni axborotlarda olovli urushlar tufayli ming-minglab odamlarning yostig'i quriyotganini eshitganingda yuraklarni vahima xurui changallaydi. Oilang bilan dasturxon atrofida tinchgina choy ichib o'tirganing eng katta boylik ekanini tushunas. Yovuzlik, razillik millatlar o'rtasiga nafaqat parokandalik soladi, balki qasoskorlikka rag'bat ham uyg'otadi. Internet tarmoqlaridagi ayrim axborot portallari bir yoqlama targ'ibot xuruji bilan ongi shakllanmagan, "ko'cha" gapiga uchuvchi yoshlarni chalg'itayotgani kechirilmas holdir.

Sobiq sho'ro hukumati parchalanganda, mustaqillikning ilk yillarida atqoli yozuvchi Chingiz Aytmatov barchamizni ogohlantirgan edi: "Hamma balo shundaki, dastlab demokratiyani boshboshdoqlik deb tushundik. Bo'lmasam-chi, har kim o'ziga xon, o'ziga bek, har kim o'zi tusagan ishini qiladi. Ko'ngil esa nimalarni tusamaydi?! Xo'sh, ko'zimizni qoplagan yog'ni artib, mundaq qarasa... nimalarni ko'rdik? Yo'q, birinchi navbatda, demokratiya — qattiq tartib-intizom. U o'ziga xos mezonlarga, chek-chegaraga ega bo'lishi kerak.

Sodda bir misol. Oila — davlatning mitti qo'rg'oni, birlamchi bo'g'ini. Unda ham boshliq bo'ladi, o'rinbosar bo'ladi, oddiy ijrochilar bo'ladi. Agar demokratiyani pesh qilib, kelin qaynonasiga gap qaytarsa, o'g'il esa onasiga o'shqiraversa?! Madaniyatdan, ma'naviyatdan mosuvo bo'lgan, tinchtotuvlik o'rni nifoq va musibat keltiradigan bunday demokratiya kimga kerak?!"



Hakim Yo'ldoshev olgan surat.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Tahlil minbari

Jonibek ALIJONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bugun kun davomida hech bo'lmasa bir marta yangilik o'qimaydigan yoki eshitmaydigan odam topilmasa kerak. Ko'pchiligimiz tongda uyg'onishimiz bilan telefonimizni olib, turli platformalardan yangiliklar o'qishni boshlaymiz. Ya'ni aksariyatimizda "yangiliklarga qaramlik" erta tongdanoq boshlanadi. Qizig'i, buni reja asosida qilmaymiz, balki hammasi tabiiy jarayon — aqlimizdagi yangiliklarga ehtiyojdan.



XABARXO'RANDALIK

Biz qanday axborot iste'mol qilyapmiz?

To'g'ri, yangiliklardan xabardor bo'lish, ularga munosabat bildirish ham insonning demokratik huquqlaridan biri, biroq tanning ikkinchi tomonida aynan xabar-yangiliklar orqali inson psixologiyasiga ta'sir qilish missiyasi hamda noma'lum targ'ibotlar turishini ham yoddan ko'tarmaslik kerak, nazarimizda. Zero, har doim ham ongostini aql bilan boshqarib bo'lmaydi.

Keling, kichik-kichik tahlillar qilib ko'ramiz. Masalan, etikdo'z har kuni ustaxonasiga keladi, kun davomida turli yangiliklarni o'qiydi yoki eshitadi. Kecha eshitgan xabari bugun unga qiziq emas, sababi, tafakkurida yangilikka bo'lgan ehtiyoj yangisini talab qiladi. Biroq kundalik yumushi doim bir xil — buyurtma qabul qilish hamda bajarish. Aksariyat holda o'z faoliyatiga yangilik kiritish haqida umuman bosh qotirmaydi, negaki, uning ongidagi yangilikka bo'lgan tug'ma o'chlik shu xabarlar orqali qoplanayapti. Bu — shaxsiy fojia.

Kunlarning birida hamkasbim bilan tushlik qilib o'tirar ekanmiz, u bir shov-shuvliroq yangilikning "uchini chiqarib", internetda tarqalganini aytdi. Menda bezovtalik boshlandi — nega ertalabdan buyon shuncha xabar o'qib, aynan uni ko'rmadim? Yoki e'tiborsizlik qildimmi? Ishonasisim, shu yangilikni o'qimaganimdan o'zimni aybdor ham his qila boshladim. Ha, aynan aybdor his qildim o'zimni! Axir bu yangilikning ishimga ham, hayotimga ham, qo'yingki, menga umuman aloqador joyi yo'q edi-ku? Nega bunday bo'ldi? Men esa tezroq tushlik qilib bo'lsak-da, shu yangilikni o'qib olish payida o'tirardim. Tashxis qo'yishni esa sizga qoldirmoqchiman.

Bir safar avtobusda ikki maktab o'quvchisining suhbatiga beixtiyor guvoh bo'lib qoldim. To'rt yoki beshinchi sinfda o'qisa kerak. Suhbat mavzusi — okeanorti mamlakati. Ular bu yurtini shunchalik tasvirlayaptiki, yigitlar o'sha yerda tug'ilgan bo'lsa kerak, deb o'ylaysan kishi. Xulosalari bunday: AQSHda pul topish oson, yashash arzon, xohlagan ishingini qila olasan, ya'ni bemalolsan. Bu dunyoqarash ularga qayerdan singib qolgani-ku aniq, biroq ularning yoshlikdand shunday xulosa bilan ulg'ayishi fojiani o'zi emasmi? Aynan yangiliklar orqali boylik bor yerda hamma narsa — vatanparvarlik ham, odamiylik ham ikkinchi darajali, degan tushunchalar singdirilayotgandek qo'yo. Vatanparvarlikni so'ndirish kimga kerak?

Bu kabi tadqiqotlarni yana davom ettirish mumkin, biroq xulosalar oqidan qorasi ko'pligini qayta-qayta isbotlayveradi.

Xo'sh, tug'ma ehtiyojga o'xshaydigan xabarxo'randalik bizga nima uchun kerak? Vaqt o'tkazish uchunmi? Yoki ular hayotimizni rang-baranglashtiradimi? Balki axborot qabul qilishning ham o'z iste'mol me'yorlari bordin? Shu savollar bilan filologiya fanlari doktori, tanikli jurnalist Beruniy Alimovga murojaat qildik.

— Axborotning ko'payib ketishi "axborot bulimiyasi"ni ko'paytirmoqda, ya'ni insonlarni tobora yangilikka o'ch qilib qo'yarmoqda, — deydi B.Alimov. — Ertalab turib yangilik qidiramiz, yo'l-yo'lakay yangilik qidiramiz, uxlaguncha yangilik qidiramiz — butun kunimiz yangilik izlash bilan o'tadi-ketadi. "Bulimiya" so'zining

ma'nosini qisqacha tushuntirsa, ovqat yeb, biroq to'yish hissini tuymaydiganlar aynan shunday tashxislanadi. Ko'pchiligimiz axborot iste'molida aynan shu kasallikka chalinganimiz haqiqat.

Hammamiz ovqat uchun pul to'laymiz, boshqa xizmatlardan foydalanish uchun pul to'laymiz, biroq nega axborot iste'moli uchun pul to'lamaymiz? Nega axborotni pala-partish iste'mol qilishni o'zimizga ravo ko'ramiz? Ishonchsiz ma'lumotlar, noto'g'ri tahlillar psixologiyamizga qanchalik salbiy ta'sir etishidan xabarimiz bormi? Shu o'rinda, men obuna masalasining qanchalik ahamiyatga ega ekanini tushungandek bo'laman. Aynan biz to'g'ri axborot iste'mol qilish uchun ishonchli manbalarga obuna bo'lmas ekanimiz, dezinformatsiyalar hamda missinformatsiyalar ongimizni zaharlashda davom etaveradi.

Yurtdoshlarimiz orasida iste'mol madaniyatini qanday bo'lishi lozim? Bu borada ham Beruniy Alimovning mulohazalariga quloq tutamiz:

— Demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekanmiz, axborot oqimini cheklay olmaymiz. Biroq xalqimizning axborot iste'moli madaniyatini hamon oqsoq. Yurtdoshlarimiz hanuz bilib-bilmagan,



tekshirilmagan hamda manbasi aniq bo'lmagan yangiliklarni qabul qilishda, ularni tarqatishda davom etmoqda. Bu oxir-oqibat tushunmovchiliklar hamda ruhiy tushkunliklarni keltirib chiqarishi turgan gap.

Albatta, haq mulohazalar. Chindan ham biz yangiliklarning to'g'ri-noto'g'ri ekaniga emas, bizni qanchalik hayratga solishiga e'tibor berib qoldik. Salbiy yangiliklar oqimi shunday shiddatliki, uning nuqsi tabiatimizga ham urgandek. Buni bir tomonlama yondashuv, dersiz, biroq to'g'ri iste'molni o'rganmas ekanmiz, tanning ikki tomoni ham salbiy ifodani aks ettiraveradi. Muammo ana shunda.

Xabarlar, asosan, rasmiy sahifalar, xalqaro axborot agentliklari hamda katta-kichik xususiy manbalar tomonidan tarqatiladi. Rasmiy manbalarda-ku aniq maqsadlar hamda faoliyat aks etishi ravshan, biroq xalqaro axborot agentliklari yangilik ulashish

ortidan qanday maqsadlar ko'zlaganini tushunish mushkulroq. Ilgari ular faqatgina ulkan auditoriya uchun harakat qilgan bo'lsa, ayrimlari bugun katta kuchlarning istak-irodalarini amalga oshirishda kamarbasta bo'lmoqda. Afsuski, ular qanday kuchlar va aniq maqsadlari nima, orada qanday kelishuvlar mavjud — bularni oddiy o'quvchi bo'lib ochiq olmaymiz.

Shunchaki tabiiy sodir bo'lgandek bo'linuvchi hodisalar uyushtirilishi hamda "tarqatuvchilar" jarayonni yoyishni zim-malariga olgan bo'lishi mumkin. Buning nomi — targ'ibot. Aynan shu usul orqali

har bir insonning shijoatini butunlay so'ndirishgacha, umidsizlik girdobiga cho'ktirishgacha olib borishi mumkin. Shu o'rinda, bu jarayon kattalarga qanday ta'sir etadi, bolalarga qanday ta'sir etadi, degan alohida-alohida tahlildan voz kechamiz. Chunki zarar barchaga birddek!

Xabarxo'randalikning yana bir salbiy oqibati shuki, vaqtni boshqarish prinsipi butkul izdan chiqib ketadi. Siz bo'sh vaqtningizning asosiy qismini shaxsiy rivojlanishga emas, yangilik o'qishga ajrata boshlaysiz. Bu "ajratish" borgan sari ko'payadi. Faqat voqea-hodisalarga o'rgangan tafakkur badiiy yoki kasbiy kitoblar mutolaasidan umuman zavq olmay qo'yadi. Axir diqqat-e'tiboringiz allaqachon real vaqt bilan qadam-baqadam harakat qilishga moslashib bo'ldi, sizga umuman aloqador bo'lmasa ham.

Xo'sh, xabarxo'randalik zarar ekan, undan qanday himoyalalanish kerak? Bu borada bizda takliflar bor.

Eng avvalo, buni o'zingizdan boshlang. Siz nimalarni o'qiyapsiz, ular o'zi sizga nima uchun kerak? Kasbingizga, umuman, hayotingizga taalluqli joylari bormi? Shu savollar bilan o'zingizni chuqur tahlil qiling. Shubhasiz, natijada o'nlab, hatto yuzlab manbalar sizga keraksiz bo'lib chiqishi mumkin. Keraksiz narsalarni esa saqlashdan ne na? Ulardan voz keching.

Ikkinchidan, xabar o'qishda ham xuddi ovqatlanishda parhez qilganingiz kabi yo'l tuting. Buning o'miga badiiy asarlar, tahliliy maqolalar o'qishni odatga aylantiring. Siz butun dunyoda bo'layotgan voqealarni bilishga majbur emassiz, biroq ma'naviy dunyoningizni yuksaltirishga mas'ulsiz. Endi o'yab ko'raylik, qay bining yodasi ziyoda? Uchinchidan, tekshiruvchan bo'ling. Rasmiy, deb yozilgan xabarlar hammasi ham salbiy bo'lmaydi, aniq, deyilgan manbalarining ildizi umuman noma'lum bo'lishi ham mumkin. Bu borada eng maqbul yechim — taqqoslab ko'ra bilish. Aynan taqqoslash guruchni kurmakdan ajratadi.

To'rtinchidan, farzandlaringizga axborot iste'moli madaniyatini o'rgatib, yangiliklarni qaysi manbalardan olyapti, u manbalar nimalarni targ'ib qilmoqda, muntazam tekshirib turing. Zero, cheksiz internet maydonida XXI asrning asosiy quroli bo'lgan axborotdan o'zingizni faqat o'zingiz himoya qila olasiz.

G'animat umrimizni mazmunli o'tkazib, tafakkurimiz zaharlanishiga qo'yib bermaylik, farzandlarimiz axborot quli emas, ijobiy yangiliklar mavzusi bo'lib voyaga yetsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 415.
9800 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzili: 100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05